**Яшил қурилиш ва қайта жиҳозлаш:** Бир неча мамлакатлар энергия тежайдиган қурилиш амалиётлари ва таъмирлаш ишларига сармоя киритдилар. Мисол учун, Буюк Британия биноларнинг энергия самарадорлигини ошириш, қурилиш, муҳандислик ва барқарор дизайн соҳасида иш ўринларини яратиш дастурларини амалга оширди. Жанубий Кореянинг ҳам «Ноль углерод мақсадлари» стратегиясида қурилиш секторига алоҳида эътибор берилган.

**Жамоат транспорти ва инфратузилма:** Кўпгина давлатлар жамоат транспорти тизимларини кенгайтириш ва барқарор инфратузилмани ривожлантиришга эътибор қаратишган. Тезюар темир йўл, электр транспорт воситаларини зарядлаш тармоқлари ва шаҳар транзити каби лойиҳаларга инвестициялар транспорт, муҳандислик ва шаҳарсозлик соҳасида иш ўринлари яратилишига олиб келди.

**Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва қайта тиклаш:** Коста-Рика ва Австралия каби турли хил экотизимларга эга бўлган мамлакатларда атроф-

муҳитни муҳофаза қилиш ва қайта тиклаш бўйича ишга жойлашиш имкониятлари ривожланган. Ушбу ташаббуслар табиий ресурслар ва ёввойи табиатни ҳимоя қилишда, ўрмон хўжалиги, табиатни муҳофаза қилиш ва ёввойи табиатни бошқаришда иш ўринларини яратишга ёрдам беради.

**Айланма иқтисод ташаббуслари:** Бир қанча Европа давлатлари айланма иқтисодиёт концепциясини қабул қилиб, ресурслар самарадорлиги ва чиқиндиларни камайтиришга урғу берди. Ушбу ёндашув қайта ишлаш, чиқиндиларни бошқариш ва барқарор ишлаб чиқаришда бандлик истиқболларини очди.

Ўзбекистонда яшил иш ўринлари ва яшил иқтисодиётда ёшларнинг ўрни. Ўзбекистонда яшил иқтисодиётда ёшларнинг роли жуда муҳим саналади. Ўзбекистон яшил ва барқарор иқтисодиётга ўтаётган бир пайтда инновацияларни ривожлантириш, экологик тоза технологияларни жорий этиш ва барқарор амалиётни илгари суриш учун ёшларнинг фаол иштироки муҳим аҳамият касб этади. Ўзбекистон ўз ёшларининг иштиёқи, бунёдкорлиги ва мамлакатнинг барқарор келажагини таъминлаш учун яшил иқтисодиётга ўтиш жараёнини жадаллаштиришга интиломқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 02.12.2022 йилдаги “2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислохотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПҚ-436 сонли қарорида яшил иш ўринларини яратиш юзасидан бир қанча вазифалар белгиланган, жумладан:

- «яшил гаров» дастурлари ва табиий ресурсларга асосланган тадбиркорлик фаолияти асосида яратилган иш ўринлари сонини



кўпайтириш;

- «яшил» иш ўринларини яратиш ва «яшил гаров» дастурларини ишлаб чиқиш;
- жойларда турмуш даражасини яхшилаш ҳамда қишлоқ хўжалиги, табиий ресурслар ва экотуризм соҳаларида иш ўринларини яратишда иқлим ўзгаришига чидамлилиқ бўйича табиий ресурсларни бошқаришга асосланган корхоналарнинг салоҳиятини ошириш;
- узоқ муддатли истиқболда барқарор иш ўринларини яратиш учун «яшил» иқтисодиётга ўтиш даврида аҳолининг заиф ҳамда иқлим ўзгариши сабабли ишсиз қолиш хавфи бор қатламларига нисбатан қайта тайёрлаш ва кўникмаларни ривожлантириш, ишчи кучи мобиллигини оширишни қўллаб-қувватлаш бўйича кенг қамровли сиёсат олиб бориш;
- «яшил» иқтисодиётга самарали ўтиш учун яратиладиган ва мавжуд иш ўринлари учун янги кўникмалар бўйича ишчи кучини доимий тайёрлаш тизимини такомиллаштириш ва бошқа бир қанча вазифалар шулар жумласидандир.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 29.09.2023 йилдаги «Яшил» иқтисодиётга ўтиш жараёнини

бошқариш тизимини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 514-сонли қарорида, узоқ муддатли истиқболда барқарор иш ўринларини яратиш учун «яшил» иқтисодиётга ўтиш даврида ходимлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш, шунингдек, уларнинг «яшил» ўсиш бўйича салоҳиятини ошириш ва инсон капиталини ривожлантириш амалга ошириши кўзда тутилган муҳим чора-тадбирлар сирасидандир.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистоннинг янги иқтисодий сиёсатининг ўзига хос хусусиятлари яшил иқтисодиётга ўтиш ва бу ўзгаришларда ёшларнинг муҳим ўрнини кўрсатиб ўтади. Бундан ташқари, ёшларни жалб қилиш ва уларнинг имкониятларини кенгайтиришга эътибор уларнинг яшил иқтисодиётга ўтиш учун зарур бўлган инновациялар, ижодкорлик ва янги истиқболларни ривожлантириш салоҳияти кўрсатиб ўтади. Ёш авлоднинг янгича ғоя ва иштиёқидан фойдаланиш барқарор ечимларни ишлаб чиқишга ва турли соҳаларда экологик тоза амалиётларни тарғиб қилиш учун муҳим восита саналади.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Кўёш ва шамол электр станцияларини тармоққа улаш маросими. <https://www.youtube.com/watch?v=eNxFtcJtva0>.
2. Шавкат Мирзиёев 5 та кўёш ва 1 та шамол электр станцияларини ишга туширди. <https://www.youtube.com/watch?v=eNxFtcJtva0>.
3. Ministry of Energy of the Republic of Uzbekistan. <https://minenergy.uz/en>.
4. “Тошкент шаҳридаги Халқаро Вестминстер университети (2023). Ўзбекистонда «яшил» иқтисодиётга ўтиш: 2023 йилдаги вазият. ИХТТ “яшил ўсиш” кўрсаткичлари асосида тараққиёт мониторинги. ТХВУ, Тошкент”.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются обновленные данные об особенностях новой экономической политики Узбекистана, макроэкономическом анализе, переходе к зеленой экономике, о важности и значении участия молодежи на этом направлении. Также в статье рассматривается зарубежный опыт создания зеленых рабочих мест.

**Ключевые слова:** зеленые рабочие места, углеродная нейтральность, декарбонизация.

**Annotation.** This article discusses updated data on the features of the new economic policy of Uzbekistan, macroeconomic analysis, the transition to a green economy, and the importance and significance of youth participation in this area. The article also discusses foreign experience in creating green jobs.

**Key words:** green jobs, carbon neutrality, decarbonization.

# YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI XALQ VA DAVLAT FAROVONLIGI ASOSLARIDAN BIRIDIR

**Bakirov Xusan Orifovich,**

*Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Budget-soliq  
ilmiy tadqiqotlari instituti bosh mutaxassisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohot o'zgarishlarida va strategiyalarida barqaror rivojlanish va ijtimoiy qamrovni ta'minlovchi inklyuziv o'sishga qaratilgan yashil iqtisodiyotga o'tish maqsadlari va vazifalarining muhim o'rnini muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** islohotlar, strategiya, yashil o'sish, YaIM, tarmoqlar, samaradorlik.

O'zbekiston intensiv rivojlanish yo'lida keng ko'lamli islohotlarga urg'u bergan holda mamlakatni kelgusi o'n yillikning boshida o'rtadan yuqori daromad darajasiga yetkazish marrasini olgan. 2016-yilda prezidentlik faoliyatini boshlagan

Shavkat Mirziyoyev 2030-yilgacha aholi daromadlarini ikki baravar oshirish orqali iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan ulkan islohotlar dasturini boshlab berdi. Oxirgi yetti yil davomida Prezident iqtisodiyotni davlat nazoratidan xususiy sektorga o'tayotgan bozor iqtisodiyoti, shuningdek zamonaviy va inklyuziv ijtimoiy va ekologik siyosatga qaratilgan katta islohotlarni amalga oshirdi.

Strategik chora-tadbirlar va maqsadlar

2017-yildan buyon O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va sanoat tarmoq sohaslarini rivojlantirish istiqbollari, maqsadlari, yakuniy natijalari, maqsad va vazifalari, strategik yondashuvlari va ularga erishish chora-tadbirlarini, shuningdek, keyinchalik sektorlar va aniq masalalarga oid strategiyalarga joriy qilinadigan siyosat yo'nalishlarini belgilab beruvchi uchta strategik hujjat qabul qilindi. Ulardan birinchisi 2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi bo'lib, unda global iqlim o'zgarishi va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligini rivojlantirishga va aholining turmush tarziga bo'lgan salbiy ta'sirini yumshatish uchun zarur bo'lgan tizimli chora-tadbirlar yetarlicha belgilab berildi. Keyingi ikki hujjatlar — 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi yuzta maqsad va

to'rt yuzga yaqin chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ular iqtisodiyot, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohaslarida "yashil" texnologiyalarni samarali joriy etish; "yashil" energetikani rivojlantirish; energiya samaradorligini oshirish; "yashil" sertifikatlash, ekologik markirovkalash hamda iqlim o'zgarishi sohasida monitoring va baholash tizimini joriy qilish; shahar va tumanlarda ekologik muhitni yaxshilash; "Yashil makon" umummilliy loyhasini amalga oshirish; salbiy ta'sirni kamaytirish va iqlim o'zgarishiga moslashish uchun o'rmonlar maydonini kengaytirish va ularni muhofaza qilishni kuchaytirish bilan bog'liq asosiy masalalarni qamrab oladi.



2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi (1-jadval) Parij bitimi majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash orqali harakatlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Strategiyada elektr energiyasi, issiqlik energiyasi, neft va gaz, kimyo sanoati, qayta tiklanadigan energiya manbalari, qurilish va qurilish materiallari, transport, suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, qattiq maishiy chiqindilarni tartibga solish

va qayta ishlash, “yashil” texnologiyalarni joriy qilish, ta’lim, fan, “yashil” iqtisodiyot va “yashil” investitsiyalarga o’tishni qo’llab-quvvatlash kabi sohalarda ustuvor yo’nalishlarni belgilab beradi.

Har bir iqtisodiy sektorning o’z strategiyasi va konsepsiyasi mavjud bo’lib, ular iqlim o’zgarishiga moslashish hamda uning ta’sirini yumshatish rejalari va harakatlarini o’z ichiga oladi.

2022-2026-yillarda Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 2026-yilgacha boshqa masalalar qatorida milliy rivojlanish maqsadlarini iqlim o’zgarishiga qarshi kurashish vazifalari bilan hamohangligini ta’minlashga qaratilgan. Strategiya umumiy istiqboldan kelib chiqadigan 100 ta yuqori darajadagi maqsad-vazifalarni belgilaydi, ulardan ikkitasi (24-maqsad va 80-maqsad) iqlim o’zgarishini yumshatish va unga moslashish masalalari bilan bevosita bog’liq.

1-jadval. 2030-yilgacha O’zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o’tish va “yashil” o’sishni ta’minlash bo’yicha maqsadli ko’rsatkichlar

No	Ko’rsatkichlar	O’lchov birligi	2022 maqsadlar	2024 maqsadlar	2026 maqsadlar	2028 maqsadlar	2030 maqsadlar
1	YAIMning energiya sig’imi	Tonna neft ekvivalentida energiya safini kamaytirish, %	5	14	22	27	30
2	YAIMning energiya sig’imi	Jami energiya iste’molidagi ulushi, foizda	26	25	23	21	20
3	Qayta tiklanadigan energiya ulushi	Elektr energiyasi ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi foiz ulushini oshirish	8	9	24.3	29.0	30.5
		kVt/s	6.5	8.6	25.0	34.0	40.7
4	Kichik quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish	megavatt	10.0	150.0	400.0	800.0	1 500.0
5	Yaxshilangan ichimlik suvi manbalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo’lgan aholi	Umumiy aholi sonidagi ulushi, foizda	69.7	80.93	87.12	88.5	90.0
6	O’rmon fondi yerlarida daraxtlar va butalar zaxirasi	mln m3	64.2	68.1	77.0	85.5	92.3
7	“Yashil yer” loyihasi doirasida shaharlardagi yashil maydonlarning ulushi	Shahar aholi punktlarining umumiy maydonidagi ulushi, foizda	8.3	12.4	15.8	23.8	30.0
8	Qayta ishlanadigan qattiq maishiy chiqindilarning ulushi	Hosil bo’lgan qattiq maishiy chiqindilardagi ulushi, foizda	30.0	40.0	50.0	60.0	65.0

Manba: 2022 yil uchun O’zbekiston YAO‘SA dasturi va harakatlar rejası (2030 yilgacha O’zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o’tish va «yashil» o’sishni ta’minlash bo’yicha maqsadli ko’rsatkichlar).

Strategiyada iqtisodiyot tarmoqlari bo’yicha 2026-yilga borib YaIM birligiga to’g’ri keladigan issiqxonaga gazlarining atmosferaga chiqarilishi hajmini 2010-yil darajasiga nisbatan 10 foizga kamaytirish maqsadi belgilangan. Milliy miqyosda belgilanadigan hissalar va O’zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o’tish va “yashil” o’sishni ta’minlash bo’yicha dastur 2030-yilda YaIM birligiga to’g’ri keladigan issiqxonaga gazlari emissiyasini 2010-yildagi darajadan 35 foizga kamaytirish maqsadlarini belgilab beradi.

“O’zbekiston – 2030” strategiyasida 2030-yilgacha mamlakatni barqaror iqtisodiy o’sish orqali daromadi o’rtachadan yuqori bo’lgan davlatlar qatoridan o’rin olishi bo’yicha 100 ta asosiy islohotlar

yo’nalishlari va maqsadlari belgilangan. Bunda ham “yashil” iqtisodiyot (51-maqsad), atrof-muhitni muhofaza qilish hamda iqlim o’zgarishini yumshatish va unga moslashish (66-71-maqsadlar) masalalari asosiy o’rin egallaydi. 2-jadvalda ko’rsatilganidek, mazkur Strategiyalar energetika, transport, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o’zgarishi masalalarini qamrab oladi.

2-jadval. 2022-2026 yillarda Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda “O’zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan iqlim o’zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo’yicha sa’y-harakatlarning asosiy strategik maqsadlari va ustuvor yo’nalishlari (manba: CPEIR Uzbekistan, 2023 UNDP)

2022-2026 YILLARDA YANGI O’ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI	2022-2026 YILLARDA YANGI O’ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI
24-maqsad: Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash, “yashil” iqtisodiyot texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy qilish, energiya samaradorligini 20 foizga oshirish	51-maqsad: “Yashil iqtisodiyot”ga o’tish, uning asosi bo’lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko’rsatkichlarini keskin oshirish

2026-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarishni qo'shimcha 30 milliard kVt/soatga oshirish, umumiy ishlab chiqarish quvvatini 100 milliard kVt/soatga yetkazish.	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt hamda jami iste'moldagi ulushini 40 foizga yetkazish.
2026-yilga kelib qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 25 foizga oshirish hisobiga 3 milliard kub metrgacha tabiiy gazni tejash.	3 GVt quvvatli 3 ta issiqlik elektr stansiyalarini modernizatsiya qilish orqali tabiiy gaz sarfini kamaytirish.
O'zbekiston energetika tizimining barqaror ishlashini ta'minlash va qo'shni davlatlarning energetika tizimlari bilan o'zaro hamkorlikda uning kafolatlanganligini ta'minlash.	Iqlim o'zgarishi sohasida barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi monitoring tizimini (MRV) yaratish.
Uy-joy kommunal xo'jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanadigan energiya manbalarini keng joriy qilish va energiya samaradorligini oshirish.	Ko'p qavatli uy-joylardagi xonadonlarning energiya samaradorligi (energoaudit)ni baholash tizimini joriy etish.
Sanoatda yo'qotishlarni kamaytirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish.	Sanoatda "yashil sertifikat"lar bozorini rivojlantirish va "ekologik markirovkalash" amaliyotini joriy qilish.
Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha 2026-yilga borib YAIM birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlarining atmosferaga chiqarilishi hajmini 2010-yil darajasiga nisbatan 10 foizga kamaytirish.	Issiqlon gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan 2010-yildagi darajadan 30 foizga qisqartirish.
Elektr transport vositalarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish choralarini ko'rish.	Shaharlarda jamoat transportini ekologik toza yoqilg'iga o'tkazish.
<b>80-maqсад: Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarning ekologik holatini yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish</b>	<b>66-71-maqсадlar: Atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi ta'sirini oldini olish bo'yicha islohotlar</b>
"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida har yili kamida 200 million daraxt ko'chatlarini ekish.	Har yili 200 million tup daraxt ekib borish va respublikada yashillik darajasini 30 foizga yetkazish, ekiladigan har bir daraxtni parvarish qilish va sug'orish tizimini yaratish.
"Yashil makon" umummilliy loyihasiga muvofiq respublikaning 10 ta hududida aerobiologik monitoring tizimini tashkil qilish.	Yuqori samaradorlikka ega chang-gaz tozalash uskunalari va lokal suv tozalash inshootlarini o'rnatish hamda mavjudlarini modernizatsiya qilish, 14 ta ekologik toza hudud rejimini joriy qilish.
2026-yilda maishiy chiqindilarni yig'ish darajasini 100 foizga yetkazish, qayta ishlash ko'rsatkichlarini esa hozirgi 21 foizdan 50 foizga oshirish.	Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish xizmatlari bilan qamrab olish darajasini 100 foizga, chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizga oshirish.

Respublikada 51 ta quruqlikdagi tabiiy suv obyektlarining (daryolar, kichik daryolar va tabiiy ko'llar) sanitariya muhofazasi zonalari va qirg'oqbo'yi hududlarini belgilash bo'yicha ishlarni yakunlash.	Suv ishlatish samaradorligini 25 foizga oshirish, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 mln gektargacha, shu jumladan tomchilab sug'orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish.
Toshkent shahrini aholi uchun qulay, ekologik toza, yashash uchun barcha sharoitlarga ega hududga aylantirish, uning obodonlashtirish (ko'kalamzorlashtirish) darajasini 30 foizga yetkazish.	Toshkent shahrida yashil maydonlar hududini 5 barobar ko'paytirib, 5 ming gektarga yetkazish.
Orol dengizining qurigan tubida qo'shimcha 500 ming gektar yashil maydon yaratish, 2026-yil oxiriga qadar umumiy maydonni 2,5 million gektarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish.	Orol dengizining qurigan tubida qo'shimcha 600 ming gektar yashil maydonlarni barpo etib, ularning umumiy hajmini 2,6 million gektarga yoki hududning 80 foiziga yetkazish.
Orolbo'yida Xalqaro yashil iqlim fondi va Global ekologik fondning bioxilma-xillikni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi va tuproq eroziyasining oldini olishga qaratilgan dasturlari asosida qiymati 300 million AQSH dollari bo'lgan loyihalarni amalga oshirish.	Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni 12 foizgacha kengaytirish, 2 million gektar hajmda tabiiy yaylovlar va pichanzorlar o'simliklarini biobotanik tekshirishni har yili amalga oshirish.
Shaharlar va tuman markazlarida har 50-100 ming kishiga "jamoat parklari"ni tashkil etish.	Shaharlar bosh rejalarini tuzishda ular hududining kamida 30 foizini yashil maydonlar tashkil etishi, turar joy binolarini qurishda "yashil maydon"larni aholining soniga mutanosib bo'lishini ta'minlash.

O'zbekistonning iqlim o'zgarishi va "yashil" o'sish bo'yicha siyosati uzoq va o'rta muddatli istiqbollarni batafsilroq rejalar bilan birlashtirgan strategiyalar to'plami doirasida boshqariladi (1-rasm). So'nggi bir necha yil mobaynida qabul qilingan konseptual hujjatlar 2030-yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi va 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini o'z ichiga oladi. Ularning asosiy maqsadi emissiya va ifloslanishni kamaytirish orqali iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish va unga moslashish, suv resurslaridan oqilona foydalanishni

rag'batlantirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash, qayta tiklanadigan energiya manbalarini ko'paytirish, aholiga chiqindilarni yig'ish va olib ketish xizmatlarini ko'paytirish, energiya samaradorligini oshirish va uglevdorodlardan foydalanishni kamaytirishdan iborat.

1-rasm: "Yashil" o'sish va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq strategiyalarni milliy va tarmoqlar miqyosida rejalashtirish (manba: CPEIR Uzbekistan, 2023 UNDP)




#### Yashil iqtisodiyot samaradorligi bo'yicha erishilgan natijalar

O'zbekiston iqtisodiyoti tabiiy zaxiralardan foydalanishda tobora samarali bo'lmoqda. So'nggi 30 yil ichida uglerod chiqindilari, energiya, materiallar va suv bo'yicha samaradorlik oshgan. Biroq, ular Markaziy Osiyo (MO) va Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo (ShYeKMO) mintaqasidagi o'rtacha ko'rsatkichlardan ancha past bo'lib qolmoqda. Umidbaxsh taraqqiyotga qaramay, tabiiy zaxiralardan foydalanish hajmi yuqori bo'lib, tabiiy kapitalga nisbatan bosimni keltirib chiqarmoqda.


Ijobiy natijalar: O'zbekistonda issiqxona gazlari (IG) chiqindilarining umumiy hajmi Markaziy Osiyoda Qozog'istondan keyin ikkinchi o'rinda, yalpi ichki mahsulot (YAIM) birligiga to'g'ri keladigan chiqindilar bo'yicha esa dunyoda beshinchi o'rinda turadi. Shu bilan birga, so'nggi 20 yil ichida u yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan uglerod chiqindilarini taxminan 75% ga kamaytirishga muvaffaq bo'ldi. Shu tariqa tendensiyani umidbaxsh deb baholash mumkin (2 va 3. rasmlar).

**Yashil iqtisodiyot samaradorligi bo'yicha erishilgan natijalar**




Manba: O'zgidromet, 2021-yil va IHTT, 2023-yil.

**3-rasm. CO2 tashlanmasi samaradorligi**



Manba: IHTT, 2023-yil

**4-rasm. Energiya samaradorligi**




Manba: IHTT, 2023-yil

So'nggi yillarda YAIMning energiya sig'imi pasaymoqda (4-rasm), ammo dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri bo'lib qolmoqda. 2022-yilda O'zbekiston energiya ehtiyoji bo'yicha dunyodagi sakkizinchi mamlakat bo'ldi. Energiya iste'molining

taxminan 45% binolar (turar-joy va tijorat binolari)ga, 21% sanoatga, 18% esa transportga to'g'ri keladi.


So'nggi 30 yil ichida iqtisodiyotdagi suv samaradorligi to'rt baravar oshdi va ishlatilgan suvning har bir kubometri (m<sup>3</sup>) uchun 2 AQSH



Manba: IHTT, 2023-yil

dollarini tashkil etdi (6-rasm). Ushbu yutuqlarga qaramay, samaradorlik Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha o'rtacha 43 AQSH dollari/m<sup>3</sup> va

dunyo bo'yicha o'rtacha 21 AQSH dollari/m<sup>3</sup> bilan solishtirganda eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib qolmoqda.



Manba: IHTT, 2023-yil

So'nggi 30 yil ichida iqtisodiyotdagi moddiy mahsuldorlik (ma'lum miqdordagi metall, nometall va biomassadan foydalanish natijasida olingan mahsulot hajmi) ikki baravar ko'paydi (5-rasm). Bu MO bo'yicha uchinchi o'rindagi natija hisoblanadi.


Qoniqarli natijalar. Shamol va quyosh energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya manbalari O'zbekiston energiya balansida ahamiyatsiz o'rin tutadi (2 % dan kam) va ularning ulushi Markaziy Osiyo o'rtacha ko'rsatkichidan ancha (15%) past. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining (QTEM) elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi 2022 yilda 9% gacha oshdi. QTEMning 90 % dan ortig'i gidroenergetika hissasiga to'g'ri keladi (7, 8-rasmlar). Qayta tiklanadigan energetikaning rivojlanishi

quyosh energiyasining yuqori salohiyatiga qaramay sekin sur'atlarda davom etmoqda.

2021-yilda O'zbekistonda besh yil oldingiga nisbatan o'n baravar ko'p qattiq chiqindilar hosil bo'lgan (9-rasm). 2021-yilda taxminan 6 mln tonna yoki aholi jon boshiga 165 kg qattiq maishiy chiqindilar hosil bo'lgan. Chiqindilarning hosil bo'lishi o'sib borayotgan bo'lsa-da, hozirgi daraja dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichning atigi yarmini tashkil qiladi. Biroq, 2018-yilda aholining faqat yarmi chiqindilarni muntazam yig'ish xizmatlari bilan qamrab olingan. Chiqindilarni qayta ishlash hajmi ortib borayotgan bo'lsada, 2021-yilda ularning faqat to'rt dan bir qismi qayta ishlangan.




7-rasm. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi




Manba: Statistika agentligi, 2023 yil

8-rasm. Qayta tiklanadigan energiya ta'minotining ulushi



Manba: IHTT, 2023 yil

9-rasm. O'g'itlardan foydalanish




Manba: Jahon banki, 2023-yil

O'zbekistonda har gektar (ga) ekin maydonlarida ishlatiladigan mineral o'g'itlar miqdori ko'paygan, bu bir gektar ekin maydoniga to'g'ri kelgan ortiqcha o'g'itlashning o'sishiga olib keldi. So'nggi 30 yil

ichida bu ko'rsatkich 50 % dan ko'proq oshdi va 2020-yilda dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan 75% yuqori bo'ldi (10-rasm).

10-rasm. Hosil bo'lgan qattiq maishiy chiqindilar



Manba: Statistika agentligi, 2023-yil

O'zbekistondagi yangi davrda har bir sohada islohotlar keng ko'lamda olib borildi va ushbu islohotlar bosqichma-bosqich muayyan maqsadlarga (eng ustuvoridan strategik uzoq muddatli maqsadlar sari) erishishga qaratildi. Islohotlarda umume'tirof qilingan ochiqlik, demokratik va albatta global tabiatni asrash hamda inson manfaatlarini hal qilishga, rivojlangan davlatlarga yetib olishga katta natijalarga qaratilib har bir soha va davr uchun strategiyalar qabul qilinib, ularda belgilangan vazifalar bajarilishi

qattiq nazoratga olinishi talab etildi. Innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot va albatta yashil iqtisodiyot kabi zamonaviy tendensiya yo'nalishlarida strategiyalar qabul qilinib, ularning har birida barqaror rivojlanish va inklyuziv o'sish asoslari e'tibor markazida bo'lmoqda. Zero, yashil iqtisodiyotning eng asosiy maqsadlari bo'lgan mazkur yo'nalishlar adolatli va insonparvar shuningdek tabiatni asrash (naturefriendly) kabi aspektlarni qo'llab quvvatlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Climate Public Expenditure and Institutional Review: Uzbekistan 2023 UNDP.
2. <https://lex.uz/docs/6303230>
3. Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti (2023). O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish: 2023-yildagi vaziyat. IHTT "yashil o'sish" ko'rsatkichlari asosida taraqqiyot monitoringi. TXVU, Toshkent".
4. [www.climatewatchdata.org/countries](http://www.climatewatchdata.org/countries)
5. <https://lex.uz/ru/docs/4539506>
6. <https://lex.uz/ru/docs/5841077>

**Аннотация.** В данной статье рассматривается важная роль целей и задач перехода к зеленой экономике, направленной на устойчивое развитие и инклюзивный рост, обеспечивающий социальный охват в реформаторских изменениях и стратегиях, реализуемых в новом Узбекистане.

**Ключевые слова:** реформы, стратегия, зеленый рост, ВВП, отрасли, эффективность.

**Abstract.** This article discusses the important role of the goals and tasks of the transition to a green economy aimed at sustainable development and inclusive growth that provides social coverage in the reform changes and strategies being carried out in the new Uzbekistan.

**Key words:** reforms, strategy, green growth, GDP, sectors, efficiency.

# Ўзбекистоннинг дўстона ва тинчликсевар ташқи сиёсати

Камилов Шухрат Эркинович,

Атроф муҳит ва табиатни муҳофаза қилиш технологиялари илмий-тадқиқот институти бўлим бошлиғи

**Аннотация:** Бузун дунёда кечаётган глобаллашув жараёни инсоният тараққиётига ижобий таъсир кўрсатиш билан бирга, ўзида турли таҳдид ва хавф-хатарларни ҳам намоён этмоқда. Ҳозирги таҳликали даврда фаровонликни таъминлаш учун нафақат ички сиёсат, дўстона ва тинчликсеварлик ташқи сиёсат ҳам муҳимдир.

**Калит сўзлар:** тинчликсевар, мустақиллик, суверинитет, хавфсизлик, янги ренесанс, минтақа, Марказий Осиё, стратегия, ташқи сиёсат.

Ўзбекистоннинг дўстона ва тинчликсевар ташқи сиёсатида Марказий Осиё минтақаси Ўзбекистон учун стратегик нуқтаи назардан доимий равишда устуворлик касб этиб келади. Ўзбекистон ўз мустақиллигини қўлга киритган илк дамларданоқ мустақилликни сақлаш, суверинитетни мустаҳкамлаш, хавфсизликни таъминлаш ҳамда халқаро ҳамжамиятга интеграциялашиш борасида муайян ислохотларни амалга оширди. Аммо, эски тузумнинг асоратлари ўлароқ сақланиб қолган чегараларнинг миллий номувофиқлиги, йўл ва трансчегаравий дарёлар билан боғлиқ турли муаммолар секин аста сиёсий характер касб эта бошлади. Бу эса Марказий Осиё давлатларининг ўзаро интеграциясига, шунингдек, минтақанинг халқаро ҳамжамият билан алоқалари ривожига тўсқинлик қилиб келди.

2016 йилдан бошлаб бу йўналишда янгича ёндашувлар, муаммоларни босқичм-босқич, амалий саъй-ҳаракатлар асосида ҳал қилишга интилиш вужудга келди. Биринчидан, 2016 йилнинг иккинчи ярмидан бошланган ички сиёсатдаги очиқлик, инновация ва янгиланишлар, иқтисодий соҳадаги либераллаштириш жараёнлари, янги ренесанс ғоясининг шакллана бошланиши ташқи сиёсатда янги тенденцияларни келтириб чиқарди. Бундан ташқари, маданий гуманитар соҳалардаги кенг ўзгаришларни юзага келиши, аҳолининг ижтимоий онги ва фаоллигидаги ўзгаришлар, албатта, ички сиёсатнинг мантиқий давоми сифатида ташқи стратегиямизга ҳам ижобий таъсир қилди. Муҳими, мамлакат ички

ҳаётида кузатилаётган таълим ва маърифат, фуқаролар фаоллиги ва инсон ҳуқуқлари ҳимоясига эътибор – давлатимизнинг ташқи сиёсатида ҳам бўй кўрсатди.

Минтақавий ташқи сиёсатда, яъни Марказий осиеда тинчлик, барқарорлик ва хавфсизлик муҳитини шакллантириш масаласи устуворлик касб этаётир. Янги Ўзбекистон қўшнилари билан дўстона, яқин қўшничилик ва ўзаро манфаатли муносабатларни ривожлантириш ва мустаҳкамлаш йўлида фаол иш олиб бормоқда.

Икки томонлама ва кўп томонлама алоқаларни барча йўналишларда, шу жумладан, давлат раҳбарларининг мунтазам учрашувларини ўтказиш, савдо ва сармоявий ҳамкорликнинг доимий ўсиши, транспорт соҳасидаги ўзаро алоқалар муҳим тенденцияга айланди.

## Маслаҳат учрашувлари халқаро миқёсдаги энг янги дипломатия

Президент Шавкат Мирзиёевнинг энг муҳим халқаро ташаббусларидан бири – БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида биринчи марта эълон қилинган Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг маслаҳат учрашувларини ўтказиш тўғрисидаги таклиф амалга ошди. Ушбу ташаббус халқаро миқёсда кенг тан олинди ва минтақа давлатларининг барча раҳбарлари томонидан қўллаб-қувватланди. Ҳозирги кунгача бундай учрашувлар тўрт марта ўтказилди ва мунтазам тус олиб бормоқда. Ўзбекистон томонлар ўртасидаги мулоқотга кўмаклашиб, Афғонистондаги тинчлик жараёнини қўллаб-қувватлаш ва илгари суришда фаол иштирок

этноқда, шунингдек, Афғонистон иқтисодийетини тиклаш ва ушбу мамлакатни минтақавий ҳамда халқаро савдо-иқтисодий муносабатларга жалб қилишга ёрдам берадиган муҳим иқтисодий ва инфратузилмавий лойиҳаларни амалга оширмоқда. Ўзбекистоннинг Афғонистонга нисбатан сиёсати Марказий Осиёда барқарор ривожланиш истиқболлари қўшни Афғонистонда тинчликка эришиш билан чамбарчас боғлиқлигини англашга асосланади. Таъкидлаш жоиз, Афғонистондаги тинчлик жараёни узоқ вақт давомида боши берк кўчада қолиб кетди. Бундан ҳам ачинарлиси шундаки, Яқин Шарқ ва Шимолий Африкадаги бошқа инқирозли вазиятлар фонида Афғонистондаги уруш жаҳон ҳамжамияти этиборидан бутунлай четда қолди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ташаббуси билан дунё миқёсидаги ушбу ўткир муаммони халқаро ҳамжамият кун тартибига қайта киритишга эришилди. 2018 йил 26-27 март кунлари Тошкентда Афғонистон бўйича юқори даражали халқаро конференция бўлиб ўтди. Анжуманда Афғонистон Президенти Ашраф Ғани, Европа Иттифоқининг ташқи ишлар ва хавфсизлик сиёсати бўйича Олий вакили Федерика Могерини, БМТ Хавфсизлик Кенгашига аъзо давлатлар вакиллари иштирок этди. Афғонистон муаммосини ҳал қилишга бағишланган бундай кенг қамровли форум биринчи марта ана шундай юқори даражада ўтказилди. Афғонистондаги можарони ҳал қилишга кўмаклашиш, қўшни давлатлар билан яхши қўшничилик алоқаларини йўлга қўйиш Президент Шавкат Мирзиёевнинг минтақавий хавфсизликни таъминлаш масаласи ва афғон муаммосини ҳал этишдаги стратегик қарашларига, шунингдек, давлатимиз раҳбари томонидан мамлакат ташқи сиёсатининг асосий устувор йўналишларини аниқ белгилаб олинганига асосланади. Ўзбекистоннинг Афғонистонга нисбатан сиёсати афғон можаросини ҳал қилиш бўйича халқаро саъй-ҳаракатларнинг фаоллашишига, тинчлик жараёнини илгари суришга қаратилган минтақавий савдо-иқтисодий ва инфратузилмавий лойиҳаларга ушбу мамлакатни жалб қилишга олиб келди.

Ўзбекистон Президентининг Минтақавий маслаҳат учрашувининг ташаббуси нуфузли халқаро тадбир даражасига олиб чиқилиши, унинг мунтазамлигини таъминланиши минтақа давлатларнинг манфаатларига тўлиқ мос келиши, мавжуд муаммоларни кенг ва батафсил очиқ муҳокама қилиниши ва натижадорлиги XXI аср жаҳон сиёсатининг янги босқичи учун марказий осийёда янги тенденцияларни йўналишларни шакллантирувчи стратегияни

ишлаб чиқишга сабаб бўлиб, амалий тарихий сиёсий воқеа сифатида тарихга кирди. Амалий жиҳатдан, Марказий Осиё мамлакатлари ўртасидаги ҳамкорлик истиқболлари савдо, инвестициялар, транспорт, энергетика ва инновациялар, «яшил» технологиялар соҳаларида ўзаро муносабатларни янги босқичга олиб чиқиш, борасида аниқ лойиҳа ва дастурларни амалга ошириш, туризм, таълим, соғлиқни сақлаш, фан ва маданият соҳаларида кўп қиррали муносабатларни кенгайтириш, минтақа барқарорлиги ва хавфсизлигини таъминлаш юзасидан мушоҳада юритиш замонавий мулоқатни йўлга қўйиш биринчи марта амалга оширилмоқда. Унинг давомийлиги ўзаро ҳамкорликнинг тараққиёт драйверларини аниқлаш асосида қарорлар қабул қилишга шарт шароитлар ва имконият берувчи механизм сифатида ўз ўрнига эгаллигини ва минтақа ривожланишувига сезарли таъсир этувчи тартиб эканлигини кўрсатади таҳлил олиб боришни имконини беради. Ушбу янги модель доирасида илгари сурулган ташаббусларнинг амалга тадбиқ этилиши эса яқин келажакда минтақа давлатларининг стратегик ривожланиши пировардида минтақа аҳолисининг турмуш даражаси ошишига олиб келади. ва Ўзбекистоннинг Учунчи Ренессанс ғояларининг тарқалишига ва унинг таъсирини ошишига кенг имкониятлар яратади.



**Минтақавий ҳамкорликда парламент дипломатиясининг тобора ривожланиб бориши ҳам ўзига хос янги институт.** 2016 йилдан буён Тожикистон ва Ўзбекистон парламентлари ўртасида бир қанча учрашувлар бўлиб ўтди. 2018 йилда Қирғизистон Жўғарғи Кегаши ҳамда Ўзбекистон Олий Мажлиси парламентлараро комиссиясининг биринчи йиғилиш бўлиб ўтди ва ҳозиргача комиссия аъзолари ўзаро муҳим масалаларни муҳокама қилмоқдалар. Худди шунда анъана Ўзбекистон ва Туркменистон парламентлари ўртасида ҳам йўлга қўйилган. Бу шаклдаги учрашувлар минтақавий ҳамкорликни кенгайтиришда парламентлар иштирокини янада

оширишга қаратилган. Янги минтақавий сиёсат нафақат ўз вақтидалиги, балки вужудга келиши мумкин бўлган хавф хатарларни олдин кўра олиши ва Марказий Осиёда кейинги йилларда шаклланган янги сиёсий реалик – халқаро сиёсатнинг Осиё ва Европани боғловчиси сифатидаги аҳамияти ҳам муҳим бўлмоқда.

Ўз навбатида, ёш давлатимизнинг очқиқик, яхши қўшничилик, стратегик шерикчилик, ўзаро ишонч ва мавжуд муаммоларни муросаа келишуви, дипломатик йўл орқали ечиш тамо йилларига асосланган янги минтақавий сиёсати Марказий Осиёда барқарорлик ва хавфсизликни таъминлашда қанчалик самарадорлигини тасдиқлайди. Шу билан бирга, минтақанинг замонавий ҳамкорлик маконига айланишида айнақса, долзарбдир.

**Кўшни давлатлар билан узоқ вақтдан буён ечилмай қолаётган ва бошқа амалий алоқаларга тўсқинлик қилиб келган черага масалаларини ҳал қилиш бўйича эришилган натижаларни стратегик аҳамиятга эга бўлмоқда.**

Аваламбор, шуни айтиш керакки, минтақа давлатлари мустақилликка эришганидан сўнг мустақил давлат сифатида ўз чегараларини делимитация ва демаркация қилишлари керак эди. Бошқача айтадиган бўлсак, ҳар бир давлат ўзига тегишли ҳудудларини географик белгилаб, кейин шу чизиқлар орқали чегарани ажратидаган барча ташкилий – ҳуқуқий ишларни амалга оширишлари керак эди. Бу жараёнда уларга эски тизимдан қолган қоидалар тўсқинлик қилди. Бир қанча муаммолар, масалан, айрим давлат ҳудудларининг бошқа давлат ҳудудида қолиб кетиши, чегаралар белгиланганда манфаатлар мос келмаслигига дуч келдилар. Бундай муаммолар узоқ вақт ечилмади ва тўпланиб борди. Натижада, бир бировига нисбатан ишончсизлик шаклланди. Ўзаро савдо ва барча турдаги алоқаларга салбий таъсир эта бошлади. 2016 йилдан кейин Президент Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан бу муаммоларни ечишга киришилди. Бу ташаббусни минтақа давлатлари қўллаб қувватладилар ва биргалиқда ҳал этишга киришдилар.

Бу нима дегани? Биринчидан, фуқораларининг ўзаро бориш келиш механизми, виза тартиблари соддалаштирилди, қўшни давлатлар билан чегараларда ўнлаб назорат пунктлари очилди. Иккинчидан, чегара пунктлардаги баъзи бир тўсиқларнинг олиб ташланиб, Ўзбекистон ва Марказий Осиё давлатлари фуқаролари ўртасида алоқалар тубдан яхшиланди. 2020 йилга келиб ҳар куни ўзбек – қирғиз чегарасини кесиб ўтган фуқаролар сони 30 минг кишига, ўзбек – тожик

чегарасида эса 20 минг кишига етди. Таққослаш учун, 5 йил олдин Ўзбекистон ва Қирғизистон ўртасидаги чегара пунктларидан бир суткада 200-300 нафар фуқаро ўтган бўлса, ҳозирги кунда бу рақам 30 мингга етди. Тожикистон билан ҳам чегара пунктларини суткасига 20 минг нафар фуқаро кесиб ўтмоқда. Бундан ташқари, 2018 йилда “Ўзбекистон ва Тожикистон фуқароларининг ўзаро сафарлари тўғрисидаги” битим имзолангани тўғрисида мамлакатларимиз ўртасида виза режими бекор қилинди ва айнан шу йили 17 та назорат пунктлари очилди. Мазкур тадбирлар икки томонлама мунособатлар ривожланишида муҳим аҳамиятга эга бўлди. Учинчидан, бу ҳаракатлар мамлакатлар ўртасида транспорт қатновларини тўлиқ йўлга қўйишга имконият яратди. 2017 йилда Тошкент – Душанбе авиа қатновлари қайта йўлга қўйилгани, Ғалаба – Амузанг темир йўлининг қайта тикланиши, А-377 халқаро йўли Самарқанд – Пенжикент қисмининг очилиши фикримизнинг ёрқин далилидир.

Буларнинг барчаси минтақа давлатлари халқлари учун ўзаро иқтисодий савдо, гуманитар маданий алоқаларни ривожлантиришда катта имкониятларни очди. Чегара масалаларини сиёсийлаштиришга ва салбий тенденциялар вужудга келишига йўл қўйилмади.

Дўстона ташқи сиёсатда иқтисодий омилларнинг асосий ўринга олиб чиқилиши минтақа давлатлари ўртасидаги мунособатларга муҳим аҳамиятга эга бўлди.

2016 йилнинг иккинчи ярмидан бошлаб Ўзбекистоннинг ташқи сиёсий муносабатларининг иқтисодийлашуви вужудга келди ва бугун у жадал ривожланиб бормоқда. Бошқача айтадиган бўлсак, иқтисодий дипломатия минтақавий кўптомонлама алоқаларда ўз аксини топди. Бунинг асосий сабаблари бор, албатта.

Бир томондан, Марказий Осиё давлатларининг геоиқтисодий ва геосиёсий жиҳатдан жаҳон бозорига чиқиш имкониятларининг еқланлиги, яъни оқенлардан узоқдалиги, жаҳон бозорига чиқиш учун камида иккита давлат чегарасини кесиб ўтишга мажбурлиги бўлса, иккинчи томондан, минтақа давлатларининг иқтисодиёти кўпроқ хом ашё маҳсулотлари билан боғлиқлигига бориб тақалади. Барчада жаҳоннинг ривожланган давлатлари билан илғор технологияларга асосланган мунособатларни ўртанишга эҳтиёж тобора ортиб бормоқда. Учинчи омил – минтақа давлатлари иқтисодиёти бир бирини тўлдирувчидир. Тўртинчи томондан йирик давлатлар, халқаро тансмилий корпорациялар минтақада ҳамкорликни ўрнатиш ва ривожлантиришдан манфаатдор бўлса ҳам, улар учун бу каби омиллар тўсқинлик қиларди. Лекин

жаҳон бозори ўта рақобардошликка асосланган. Халқаро талаблар доирасига чиқиш ва тенглар ичида тенг бўлиш учун минтақа давлатлари ўртасида савдо иқтисодий алоқаларни ривожлантириш орқали халқаро иқтисодий муносабатларга кириш вазифаси турарди. Юқорида айтганимиздек, 2016 йиларгача бўлган даврда бу жараёнлар жуда секинлик билан ривожланди. Албатта иқтисодий интеграция бўйича анча ҳаракатлар қилинган эди, лекин бу ерда янги шароитда янги йўл топиш керак эди. Ўзбекистон ана шундай ташаббус ва амалий ҳаракатлар билан дадил чиқди. Муҳим ташаббускорликни кўрсата олди. Бошқача айтадиган бўлсак, иқтисодий толерантликни намоиш этди.



Замонавий Ўзбекистон ташқи сиёсатининг янги тенденцияларидан бири бу Афғонистонни Марказий Осиёдаги иқтисодий лойиҳаларга жалб этиш бўйича ҳатти ҳаракатлари ва унинг қутилаётган истиқболларидир.

Афғонистон Марказий Осиё тизимининг муҳим бўғини ҳисобланади. Афғонистон бир вақтнинг ўзида Ғарб ва Осиёни, Шимол ва Жанубни боғловчи геосиёсий ва геомаданий, геоиқтисодий макон ҳисобланади. Лекин узоқ вақт давомида Афғонистондаги вазият бундай имкониятни амалга оширишга йўл бермаётган эди. Ўзбекистон замонавий шароит ва стратегик мувозатдан келиб чиқиб, Афғонистонни Марказий Осиёдаги иқтисодий лойиҳаларга жалб этиш таклифи билан чиқди ва амалга оширишга киришди. Давлат раҳбарининг бундай стратегик қарори чуқур таҳлилга асосланганлиги ва бўлиши мумкин бўлган хавф хатарларни ҳисобга олганлиги унинг ҳаётийлигини таъминлади. Бундай сиёсат нафақат Ўзбекистон ва минтақа давлатлари манфаатлари балки Европа, Россия, Хитой, АҚШ, Покистон, Афғонистон, Ҳиндистон ва Эроннинг манфаатларига мос келиши амалда ўз тасдиғини топди. Зеро, шундай улкан ҳудудда манфаатлар уйғунлигини таъминлашнинг янги модели сифатида эътироф этилмоқда.

Минтақавий ташқи сиёсатнинг конструктивлиги ва очиқлиги минтақа давлатлари ўртасида сув – энергетика соҳасида ўтган асрнинг 90-йилларидан бошланган зиддиятли муаммоларни нафақат ечишга, балки сувдан фойдаланишнинг янги модели шаклланишига имкониятлар яратди. Бир томондан, иқлим ўзгариши натижасида сув манбаларини камайиб бориши, шунингдек, минтақа бўйича сувдан фойдаланишга бўлган талабнинг кундан кунга ортиб бориши шароитида, иккинчи томондан, Ўзбекистон иқтисодиётининг катталиги туфайли минтақада сувни энг кўп истеъмол қилишини ҳисобга олганда, бу муаммонинг ечилиши жуда катта силжиш эди. Амударё ва Сирдарёнинг юқори оқимида жойлашган Тожикистон ва Қирғизистонда баъзи объектларнинг қурилиши, масалан, Тожикистонда Роғун ГЭСи ёки Қирғизистонда Қамбарота-1, Қамбарота-2 ГЭС ларининг қурилиши бўйича чигал масалалар кун тартибидан олиб ташланди. Марказий Осиёда бундан кейинги йирик гидротехник объектлар қурилишларда ҳамма томонни манфаатларини ҳисобга олган ҳолда олиб боришнинг ташкилий-ҳуқуқий, иқтисодий асосларини яратиш киришилди.

Тожикистон томони Зарафшон дарёсида иккита ГЭС қурушни ўз зиммасига олди. Яъни сув-энергетика муаммоси бўйича ўзаро англашувга эришилди. Бу ҳаракатлар Марказий Осиё энергетик ҳалқасини тўлиқ форматда ишга туширишдан иборатдир. Ҳозир Ўзбекистон Қозоғистон ва Қирғизистон билан мавсумий равишда, Тожикистон билан умумий энергетик ҳалқа доирасида муваффақиятли иш олиб бормоқда. Бу, ўз навбатида, аҳоли ва саноат соҳаларининг электр энергиясига бўлган эҳтиёжини, айниқса, қиш мавсумида талаб энг юқори пайтда тўлиқ қондириш имконини бермоқда.

Янги минтақавий ташқи сиёсат минтақада транспорт йўлаклари соҳасида ҳам истиқболли лойиҳаларга замин яратди. Бу борада “Ўзбекистон-Туркманистон- Эрон - Ўмон” транспорт йўлагининг муҳим участкасини амалга оширишга старт берилди, Амударё орқали “Туркманобод - Фороб” темир йўл ва автомобиль кўприклари очилди. Уларнинг ишга туширилиши “Ўзбекистон - Туркманистон - Каспий денгизи - Жанубий Кавказ” йўналиши бўйича Боку - Тбилиси - Карс ҳамда Грузия, Туркия, Руминия ва бошқа давлатларнинг Қора денгиз портларига чиқиш йўллари билан оралиқ транспорт-коммуникация магистралини яратиш ғоясини амалга ошириш имконини берди.

Бундан ташқари, 20 йиллик музокаралардан сўнг Хитой ва Марказий Осиёни Қирғизистон

орқали боғловчи темир йўл қурилиши бўйича жиддий ривожланишга эришилди. Дастлабки баҳоларга кўра, ушбу лойиҳа амалга оширилганида юкларни етказиб бериш муддатлари 7-8 суткага қисқаради, Шарқий Осиёдан Яқин Шарқ ва Жанубий Европа мамлакатларига йўл масофаси 900 км га қисқаради.

#### **Хулоса**

Хулоса қилиб байтадиган бўлсак, ҳартомонлама асосланган минтақавий дўстона ташқи сиёсат – тараққиёт ва хавфсизлик, ривожланиш кафолати бўлиб қолмоқда. Қисқа муддатларда ташқи сиёсатдаги изчиллик, прагматизм ва конструизм, ҳар қандай шароитда давлат манфаатларини ҳимоя қилиш стратегияси, изчиллик ва очиқлик туфайли амалий халқаро аҳамиятга эга натижаларга эришилди. Ташқи сиёсий кун тартибидаги барча тенденцияларни моҳирлик

билан англаш ва миллий манфаатларни ҳисобга олиш асосида қўшнилар билан бутунлай бошқа минтақавий мулоқотни ўрнатиш стратегияси – янги минтақавий дипломатия Ўзбекистоннинг киёфасига айланди.

Минтақавий сиёсат соҳасидаги воқеалар ривожини кўрсатадигани, бужараёнлар қайтариб бўлмайдиган ва улар нафақат Ўзбекистоннинг, балки бутун Марказий Осиё минтақаси, шу жумладан Афғонистоннинг келажagini белгилаб беради. Энг асосийси, Марказий Осиё, Осиё ва Европани боғловчи муҳим стратегик бўгин сифатида шаклланишига янги шарт шароитлар яратди.

Буларнинг барчаси нафақат минтақавий, балки глобал миқёсда ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлган мамлакатимизнинг янги минтақавий дипломатиясининг бағрикенглиги ва истиқболларидан далолат беради.

---

#### **АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Ўзбекистон–Қозоғистон: азалий ҳамкорликнинг янги босқичи [https://www.uza.uz/uz/posts/ozbekiston-qozogiston-azaliy-hamkorlikning-yangi-bosqichi\\_246372](https://www.uza.uz/uz/posts/ozbekiston-qozogiston-azaliy-hamkorlikning-yangi-bosqichi_246372)
  2. Ўзбекистоннинг 2020 йилда қайси давлатлар билан ташқи савдо айланмаси юқори? <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonning-2020-jilda-qajsi-davlatlar-bilan-tashqi-savdo-ajlanmasi-yuqori>
  3. Ўзбекистон тинчликсевар ва прогрессив ташқи сиёсат тарафдори <http://www.adolatgt.uz/policy/munosabat1/4817>
  4. Янги Ўзбекистоннинг барпо бўлиши: ислохотларнинг биринчи босқичи натижалари ва кейинги тараққиёт вазифалари [https://uza.uz/uz/posts/yangi-ozbekistonning-barpo-bolishi-islohotlarning-birinchi-bosqichi-natizhalari-va-keyingi-taraqqiyyot-vazifalari\\_393789](https://uza.uz/uz/posts/yangi-ozbekistonning-barpo-bolishi-islohotlarning-birinchi-bosqichi-natizhalari-va-keyingi-taraqqiyyot-vazifalari_393789)
  5. Ўзбекистон - ташқи сиёсатда дўстона ва тинчликсевар давлат <https://yuz.uz/news/ozbekiston--tashqi-siyosatda-dostona-va-tinchliksevar-davlat?view=msk-yigilishida-referendumga-tayyorgarlik-masalasi-muhokama-etildi>
-

# ДАВЛАТ ВА ЖАМИЯТ БОШҚАРУВИДА ЁШЛАРНИНГ МОСЛАШУВ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

**Насимов Дилмурод Абдуллоевич,**  
Ўзбекистон Республикаси Президент  
ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси  
Самарқанд ҳудудий филиали директори,  
иқтисодиёт фанлари доктори, профессор

**Холбаев Шахриёр Абдуллаевич,**  
Ўзбекистон Республикаси Президент ҳузуридаги  
Давлат бошқаруви академияси Самарқанд  
ҳудудий филиали доценти, иқтисодиёт фанлари  
бўйича фалсафа доктори (PhD)

**Аннотация.** Ушбу мақолада давлат ва жамият бошқарувида ёшларнинг давлат фуқаролик хизматчиси сифатида адаптацияси (мослашуви) масалалари таҳлил қилинган. Муаллифлар томонидан мавжуд муаммо ва қийинчиликлар аниқланган. Тадқиқотлар асосида ёшларнинг давлат фуқаролик хизматида киришида дуч келадиган асосий муаммолари таҳлил қилинган. Ўрганиш натижалари бўйича давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларида ёш мутахассисларни адаптацияси жараёни самарадорлигини ошириш бўйича тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** давлат, жамият, бошқарув, компетенция, мослашувчанлик, модернизация, сифат, корпоратив маданият, қадрият.

## Кириш

Ҳозирги кунда жаҳонда рўй бераётган глобаллашув шароитида мамлакатимиз барқарор тараққий этиб бориш учун ҳар томонлама модернизациялашган тизимли ёндашувни тақозо қилаётганлиги муносабати билан, олиб борилаётган ислохотлар самарасини янада ошириш, давлат ва жамиятнинг ҳар томонлама ва жадал ривожланиши учун шартшароитлар яратиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ҳамда ҳаётнинг барча соҳаларини либераллаштириш бўйича устувор йўналишларни амалга ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2023 йил 11 сентябрда ПФ-158-сонли “Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғрисида”ги фармони имзоланди. Мазкур Фармон Янги

Ўзбекистон тараққиёт стратегиясини амалга ошириш жараёнида орттирилган тажриба ва жамоатчилик муҳокамаси натижалари асосида ишлаб чиқилган «Ўзбекистон-2030» стратегияси тасдиқланди.

“Ҳар бир инсонга ўз салоҳиятини рўёбга чиқариши учун муносиб шароитларни яратиш” деб номланган биринчи йўналишида 44 мақсадни ўз ичига олган таълим тизими ислохотлари, аҳоли саломатлигини таъминлаш бўйича ислохотлар, ижтимоий хизматлар кўрсатиш ва камбағалликни қисқартириш бўйича ислохотлар, ёшларга оид давлат сиёсати ва спорт йўналишларидаги ислохотлар ва маънавий тараққиётни таъминлаш ва маданият соҳасини янги босқичга олиб чиқиш бўйича ислохотлар билан боғлиқ устувор вазифалар таълим ва тарбия тизимининг барча бўғинлари фаолиятида бугунги замон талаблари



асосида такомиллаштиришда таълим тизимини ривожланишининг янги босқичини белгилаб берди.

Давлат фуқаролик хизматида ёшларни ҳар томонлама ривожлантириш ва уларнинг барча соҳаларда иштирок этиш масаласи мамлакатимизда давлат сиёсати устувор йўналиши сифатида бўлиб келмоқда.

Давлатимиз раҳбарининг бу борада: “Мен ҳар гал ёшларимиз билан учрашганимда сизларнинг ғайрат-шижоатингиздан куч-қувват оламан, кўнглим тоғдай кўтарилади. Ҳар бирингиз жонажон Ватанимиз ва халқимизга сидқидилдан хизмат қилиш орзуси билан ёниб яшаётганингизни яхши биламан. Сизларни Ўзбекистоннинг энг катта бойлиги, бебаҳо хазинаси сифатида қадрлайман” – дея таъкидлайдилар.

Шу нуқтаи назардан, давлат фуқаролик

хизмати жозибadorлигини ошириш, шунингдек хизматда ёшларни мослашувчанлик қобилиятларини ошириш, муносиб ўрнини топиши бугунги ва эртанги кунимизнинг долзарб масаласидир.

#### **Муаммонинг ўрганилганлик даражаси**

Тарихий нуқтаи назардан файласуф Абу наср Форобийнинг “Фозил одамлар шаҳри”, Низомиймулкнинг “Сиёсатнома” ва А.Темурнинг “Темур тузуклари” асарларида бу борада қатор қарашлар ва ёндашувлар мавжуд.

Ўзбекистонлик олимлардан А.Тўхтабоев, Қ.Х.Абдурахманов, Н.К.Зокирова, Д.С.Қосимова ва А.Холовлар персонални бошқариш, давлат фуқаролик хизматида ёшларни мослашувчанлик компетенциялари билан боғлиқ масалаларни тадқиқ этишган.



Хорижлик олимлардан В.В.Травин, В.А. Дятлов, Ричард Дафт, Т.Ю.Базарова каби олимлар асарларида кадрлар менежменти ҳамда персонални бошқариш масалаларини ўрганишган.

Иқтисодчи олим А.Холов: “Давлат фуқаролик хизматида кадрларни юқори лавозимлар учун захирага олиш, мазкур соҳада тизимли ислохотларни амалга оширишни тақозо этади. Шу мақсадда кадрлар доимо ўрганиб борилиши талаб этилади, захирага қобилиятли, ташаббускор, билимдон истиқболли кадрларнинг киритилиши таъминланиши талаб этилади. Лавозимларга тайинлашда биринчи навбатда захира рўйхатлари инobatга олиниши талаб этилади” – дея таъкидлаб, давлат фуқаролик хизматида захира институтини функцияси сифатида давлат аппаратининг узлуксиз

қобилиятини қайд этиб ўтганлар. Шунингдек, захирага киритишнинг мезон кўрсаткичларидан бири сифатида таълим даражаси, амалий иш тажрибаси ва инсонлар билан ишлаш тажрибаси, ёши (шахсий ҳужжат бўйича)га урғу берганлар. Шу нуқтаи назардан, ёш мутахассиснинг янги жамоага, касбий муҳитга қўшилиши меҳнат фаолиятини муваффақиятли амалга ошириш учун зарур бўлган касбий ваколатлар ва шахсий фазилатларни шакллантиришга қаратилган муҳим ва узлуксиз жараён ҳисобланади. Давлат хизматчисининг малакасини оширишнинг стратегик вазифасини ҳал қилишда касбга қизиқиш ва шахсий ривожланиш, ўз устида ишлаш, ўзини ўзи англаш учун қобилиятларни шакллантиришга қаратилган мослашиш даврини самарали ташкил этиш муҳим ўрин тутди.

### Таҳлил усуллари

Тадқиқот услубияти асосини менежмент ва инсон ресурсларини бошқариш фанининг фундаментал қонунлари, ёшларни давлат фуқаролик хизматида мослашувчанлик компетенцияларини шакллантириш тизимларига доир тадқиқот олиб борган хориж ва Ўзбекистонлик олимлар, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг маъруза ва нутқлари ташкил қилади. Мазкур тадқиқот жараёнида тизимли таҳлил, институционал таҳлил, контент таҳлил, функционал таҳлил, қиёсий таҳлил, анализ ва синтез каби илмий тадқиқот усулларидадан фойдаланилди. Тадқиқот натижаларнинг амалий аҳамияти давлат фуқаролик хизматида ёшларнинг мослашувчанлик компетенцияларини шакллантиришга доир чора-тадбирлар ишлаб чиқишда жорий этиш мумкин.

### Таклиф ва хулосалар

Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 8 августда қабул қилинган “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги Қонунининг еттинчи “Давлат фуқаролик хизматини ўташ тартиби” боби “Давлат фуқаролик хизматчисининг касбий компетенциясини узлуксиз равишда ошириш” деб номланган 42-моддасида назарда тутилган қўйидаги бандлари ёшларимизнинг давлат фуқаролик хизматида ёш мутахассис сифатида мослашишига ҳуқуқий жиҳатдан кафолати сифатида қараш мумкин. Шунингдек, мазкур модда бандларни давлат фуқаролик хизматчисининг касбий компетенциясини узлуксиз равишда ошириш имкониятларини амалга ошириш механизмларига баъзи таклифларни бериб ўтмоқчимиз:

- ёш мутахассиснинг касбий компетенциясини узлуксиз равишда оширишда мутахассиснинг самарали фаолиятни йўлга қўйишда тармоқ ва соҳаларда “Узлуксиз ўз устида ишлаш” электрон платформаларини ишлаб чиқиш, мазкур платформа соҳа етук мутахассисларининг тажриба оммалаштиришни йўлга қўйиш мақсадга мувофиқ;

- ёш мутахассисларни касбий қайта тайёрлашда касбий билим, кўникма ва малакаларни эгаллаш билан биргаликда “Қуйидан юқорига” ва “Юқоридан қуйига” касбий топшириқ ва вазифаларни бажариш қобилиятларини ривожлантириб бориш, бунда мутахассиснинг мамлакатимизда жорий этилган “Маҳалла-Туман-Вилоят-Республика” тизимида ишлаш билан боғлиқ институционал хотирасини ошириб бориш назарда тутилиши мақсадга мувофиқ;

- ёш мутахассислар касбий компетенциясини узлуксиз равишда оширишнинг асосий шакли бўлган қайта тайёрлаш, малака ошириш ва

мустақил таълим олишнинг соҳа тармоқларнинг ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда ҳолат, муаммо ва таклифлар тизимли ишлаб чиқилиб уни дастурий маҳсулларда ўзини ифодасини топиши мақсадга мувофиқ.

Ёш мутахассисларнинг давлат фуқаролик хизмати адаптациясида устоз – шогирд муносабатларининг ўрни катта ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 30 майдаги “Истиқболли бошқарув кадрларини танлов асосида танлаб олишнинг замонавий тизимини яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3755 сонли, 2019 йил 3 октябрдаги “Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5843 сонли, шунингдек, “Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги давлат хизматини ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4472 сонли қарор ва фармонлари юртимизда кадрлар сиёсатидаги ислохотларнинг ташкилий-ҳуқуқий асоси сифатида хизмат қилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 октябрдаги ПФ-5843-сон Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсатини ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштиришга оид биринчи навбатдаги чора-тадбирлар Дастури” да ёш кадрлар учун давлат органлари ва ташкилотларидаги тажрибали раҳбарлар ва мутахассислар томонидан устозлик институтини жорий қилиш белгиланган.

Ёш давлат фуқаролик хизматчиларининг меҳнат жараёнига адаптацияси масаласи авваламбор, тўғри йўлга қўйилган устоз-шогирд тизимига боғлиқдир. Устоз шогирд тизими ортиши ва уни давлат хизматида жорий этишнинг долзарблиги унинг аънаналари ва тарихи билан танишиш орқали ёш давлат хизматчиларининг ижтимоий шахсини шакллантириш каби ижтимоий функцияларнинг аҳамияти билан изоҳланади: давлат хизмати; бажарилаётган давлат бурчларига онгли ва масъулият билан муносабатда бўлиш, ўз ватанига хизмат қилиш бурчи туйғусини шакллантириш; касбий аҳамиятли фазилатларни шакллантириш ва бошқалар.

Устоз шогирд аънаналарига эътиборнинг ортиши ва уни давлат хизматида жорий этишнинг долзарблиги унинг аънаналари ва тарихи билан танишиш орқали ёш давлат хизматчиларининг ижтимоий шахсини шакллантириш каби ижтимоий функцияларнинг аҳамияти; давлат фуқаролик хизмати мобайнида бажарилаётган

вазифаларига нисбатан онгли равишда ва масъулият билан муносабатда бўлиш, Ватанга хизмат қилиш бурчи туйғусини шакллантириш; муҳим касбий фазилатларни шакллантириш ва бошқалар билан изоҳланади.

Устоз шогирд тизими тушунчасининг олимлар томонидан амалга оширилган таҳлилига кўра таъкидлашимиз мумкинки, ушбу тизимнинг ташкилотнинг маданий қадриятларини ривожлантиришдаги ролини тушуниш, муваффақиятли мослашиш ва самарали тарғиб қилиш, шунингдек, унинг яна бир муҳим хусусияти, бу икки томонлама жараёнигидадир, бунда нафақат шогирд ёш мутахассиснинг касбий ўсишига ҳисса қўшади, балки мураббийнинг ўзи учун ҳам фойдалидир. Бундан ташқари, менторликни ўташнинг маълум босқичларидан ўтиш ва махсус услубий усуллардан фойдаланиш зарурати кузатилади, бу эса уни технология сифатида тушунишга олиб келади.



Хорижий олимлар таҳлилларига кўра устоз шогирд институти қуйидаги босқичлардан иборат: ташкилий-услубий, мотивацион, асосий ва баҳоловчи.

Биринчи босқичда устозлик институти шакллантирилиб, амалиётга татбиқ этиш жараёни амалга оширилади, унинг доирасида ёш мутахассисга устоз томонидан касбий кўникмаларни эгаллашига кўмаклашади. Ушбу босқич муҳим ҳисобланади, чунки у бутун жараён учун мезонни белгилайди. Бу ерда устозлик турлари ва шакллари танлаш, устозлик учун масъул шахсларни тайинлаш, ёш мутахассис ва устоз ўртасидаги ўзаро муносабатларни тартибга солувчи услубий тартиб таомилларни ишлаб чиқиш амалга оширилади. Устозлик институтининг асосий турларига қуйидагиларни кўрсатишимиз мумкин: корпоратив (корпоратив қадриятларни етказиш); малака (билим ва кўникмаларга эга бўлиш жараёнида ёш мутахассисларни касбий қўллаб-қувватлаш); бир-бирини тўлдирувчи (жамоавий билимларни ривожлантиришга қаратилган касблараро ўзаро

таъсир).

Устозлик институтининг шакллари орасида энг кенг тарқалганлари қуйидагилардир: тўғридан-тўғри, устоз ва ёш мутахассис ўртасида иш вақтида ҳам, ишдан ташқари норасмий шароитда ҳам бевосита алоқани ўз ичига олади; билвосита, бунда фақатгина маслаҳат ва тавсиялар билан чекланиб, тўғридан-тўғри бевосита алоқалар минималлаштирилади; индивидуал, бир нафар ёш мутахассис бир мураббийга бириктирилади; жамоавий, бир гуруҳ ёш мутахассислар бир устозга бириктирилади; очиқ, яъни устоз ва ёш мутахассис бир-бири билан ўзаро алоқада бўлиб, бундай ўзаро муносабатларнинг мақсадлари ва кутилаётган натижалар барчага маълум бўлади ва ёпиқ ўзаро таъсир, бунда мураббийнинг ёш мутахассисга таъсири сезилмайди ва очиқланмайди.

Иккинчи босқичда устозлик институти амалга оширишда иштирок этувчи шахсларни саралаш амалга оширилади. Ушбу жараёнда устоз танланади ва шогирдликка биринчи марта давлат хизматчиси лавозимига сайланган ёш мутахассисни тайинлаш амалга оширилади. Шу билан бирга, ёш давлат фуқаролик хизматчисининг келажак тақдири боғлиқ бўлган устозни танлаш тартибининг муҳимлигини алоҳида таъкидлаш керак. Бунда ёш мутахассис давлат фуқаролик хизмати учун муносиб мутахассис сифатида шаклланади ёки ишонч сўниб, танланган касбидан умидсизлик пайдо бўлади.

Устозлик институтининг кейинги босқичида модель танланади, услублар ва таъсир воситалари, амалга ошириш механизмлари ишлаб чиқилади. Ривожланган давлатлар амалиётларида устозлик институти моделлари орасида қуйидагилар кенг жорий этилган: классик устозлик – устоз томонидан касбий тажрибани ёш мутахассисга улашади; супервизия - бажарилган ишнинг танқидий таҳлили амалга оширишни назарда тутувчи ҳамкорлик; баддинг (дўстлик) – ўзаро таъсир жараёнида ижтимоий мавқеининг тенглигини белгилаб, расмий вазифани бажараётган ёш мутахассисга кўмаклашиш; шэдоунг (дублёрлик) – ёш мутахассиснинг меҳнат фаолиятини назорат қилиш учун устозга вақтинча бириктирилиши.

АҚШда устозлик дастурлари индивидуал хусусиятда бўлиб, янги ходимнинг ўз вазифалари доирасини мустақил ўзлаштиришига кўпроқ урғу берилади.

Германияда ёш мутахассисларнинг мослашуви ва устозлик жараёнига тегишли кўп жиҳатлар, масалан, устозликнинг мақсад ва вазифалари, устозлик қилувчининг вазифалари,

устозлик фаолиятининг рағбатлантириш масалалари меъёрий ҳужжатларда батафсил белгилаб қўйилади. Тегишли меъёрий ҳужжатларнинг мавжудлиги устозлик жараёнида иштирок этувчи барча субъектларнинг қонуний ҳимоясини кафолатлайди.

Буюк Британия давлат хизматида устозлик жараёни махсус порталларга жойлаштирилган услубий воситалар асосида, услубий кўмак асосида ташкил этилади. Ташкилот ва вазирлик хусусиятидан келиб чиқиб, устозликни амалга ошириш бўйича услубий кўрсатмалар фарқ қилади. Устозлик институтини ташкил этишда замонавий ахборот технологиялари ва ўқув усулларида кенг фойдаланилади.

Австралияда устозликни ташкил этишнинг хусусиятлари ходимларни категорияларга ажратиш орқали амалга оширилади: лавозимга янги тайинланган ёш мутахассислар учун, раҳбарлик лавозимларига захира кадрлар учун ҳамда кенг қамровли устозлик дастурлари.

Япониянинг “Кейрецу” моделида устозлик менталитетга боғланиб, уйғунлаштирилган. Япония давлат идораларида ёш мутахассисларни мослаштириш ва устозлик дастурларини ишлаб чиқишда корпоратив руҳни тарбиялашга (келиб қўшилган идора кадрларини қабул қилиш, идора шаънига мос бўлиш, жамоага мансублигидан ғурурланиш) кўпроқ аҳамият берилади.

Россия Федерацияси устозлик институтини ҳукумат қарори доирасида мустақамлаб “Давлат фуқаролик хизматида устозлик тўғрисидаги Низом” тасдиқланган бўлиб, унда давлат идоралари ва ташкилотларида устозликни жорий этиш тартиби ўрнатилган.

Ривожланган мамлакатлар тажрибаларидан кўришимиз мумкинки: устозликни амалга ошириш ва назорат қилишда ахборот технологияларидан фойдаланиш, устозлар ва ёш мутахассислар учун ўқув жараёнларини ташкил этиш ва узлуксиз малака оширишни ташкил этиш усулларида фойдаланилади.

Бир қатор хорижий давлатларнинг устоз ва мураббийликни қўллаш амалиёти ҳамда бу борадаги ташкилий-ҳуқуқий механизмларни ўрганиш мамлакатимиз давлат хизматида ёш мутахассисларга устозликни амалга ошириш борасидаги қуйидагилар муҳим аҳамият касб этади:

- устозлик давлат хизматида биринчи марта қабул қилинган ёш мутахассис ёки ходимга, шунингдек мазкур ходимни мансаб поғоналарини кўтарилиб борилишида унга мослашув муҳитини яратиб беришда фаол кўмак берадиган тизимли ёндашувни йўлга қўйиш;

- ёш мутахассисларга устозликни қўллашнинг асосий мақсад ва вазифалари: давлат хизматчиларининг янги иш шароитларига кўникиши ва жамоага киришишида кўмаклашиш;

- ёш мутахассисларнинг касбий компетенцияларини ривожланишида ёрдам бериш;

- ёш мутахассис лавозим вазифаларини бажаришга виждонан ва интизомли ёндашишни ўргатиш;

- ёш мутахассисларга устозликни қўллаш муддати давлат идораларининг тегишли раҳбарлари томонидан устозлик қўлланган хизматчининг касбий тайёргарлиги, унинг лавозим вазифалари хусусиятлари ҳисобга олинган ҳолда маълум бир муддатлар белгилиниши мақсадга мувофиқ.

Давлат хизматида устозлик институтини жорий этиш давлат хизматида биринчи бор келган ёш мутахассисларнинг касбий шахсини шакллантириш, касбга қизиқишни уйғотиш, давлат хизмати аънаналарини сақлаш, билим, малака ва кўникма узвийлигини таъминлаш, ўз билим ва тажрибаларини ривожлантириш, ташкилий маданиятни ривожлантириш ва корпоратив ижтимоий масъулиятни шакллантириш заруриятидан келиб чиқади. Муваффақиятли жорий этилган устозлик институти мукамал кадрлар ресурсларини шакллантириш ва давлат бошқаруви самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Расмий нашр. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2023. – 80 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 8 августдаги «Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида»ги ЎРҚ-788 Қонуни // www.lex.uz.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрь ПФ-158-сонли ““Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғрисида”ги Фармони // www.lex.uz.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 30 майдаги “Истиқболли бошқарув кадрларини танлов асосида танлаб олишнинг замонавий тизимини яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3755 сонли қарори // www.lex.uz.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 октябрдаги “Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5843 сонли Фармони // www.lex.uz.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги давлат хизматини ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4472 сонли қарори // www.lex.uz.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 августдаги “Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академиясининг ҳудудий филиалларини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-3901-сон қарори // www.lex.uz.
8. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Ёшлари Форумида сўзлаган нутқи. Янги Ўзбекистон газетаси: №252 (252), 2020 йил 26 декабрь.
10. Тўхтабоев А. Маъмурий менежмент.Т.,Молия, 2003 й.174 б
11. Абдурахманов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р., Зокирова Н.К. Персонални бошқариш – Т.: Ўқитувчи, 2008.
12. Қосимова Д.С. Бошқарув назарияси – Т.: Алоқачи, 2009. – Б. 38.
13. Холов А. Давлат фуқаролик хизматида кадрлар заҳирасини шакллантиришнинг устувор йўналишлари // “Иқтисодийёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. 2020. - № 3, май-июнь. - Б.143.
14. Савчук Д.А. Технология наставничества на государственной гражданской службе: трудности на этапе внедрения // Среднерусский вестник общественных наук. 2016. – №1. Том 11. – С. 44.
15. Субочева О.Н. Наставничество как фактор эффективности организации// Общество: социология, психология, педагогика. 2016.
16. Клищ Н.Н., Январев В.А. Наставничество на государственной службе – новая технология профессионального развития государственных служащих (зарубежный и российский опыт наставничества на государственной службе). М.: Изд. дом Высш. шк. эконом., 2014. – 64 с.
17. Травин В. В., Дятлов В. А. Основы кадрового менеджмента.-М.: Дело Лтд. - 1995. -287 с
18. Дафт Р. Л. Менеджмент / Л. Дафт. Санкт-Петербург : Питер., 2012. 863 с
19. Управление персоналом: учебник для студ. учреждений сред. проф. образования / Т.Ю. Базаров. - 8-е изд., стер. - М.: Издательский центр «Академия».
20. Kemenev D. A. The institutional mentoring model in public services //Ilkogretim Online. – 2021. – Т. 20. – №. 5.

**Аннотация.** В данной статье анализируются вопросы адаптации молодежи в качестве государственного гражданского служащего в управлении государством и обществом. Существующие проблемы и трудности были выявлены авторами. На основе исследований были проанализированы основные проблемы, с которыми сталкивается молодежь при поступлении на государственную гражданскую службу. По результатам исследования разработаны рекомендации по повышению эффективности процесса адаптации молодых специалистов в органах государственной власти и управления.

**Ключевые слова:** Государство, Общество, менеджмент, компетентность, гибкость, модернизация, качество, корпоративная культура, ценность.

**Annotation.** This article examines the challenges young people face when adapting to roles as civil servants in public and community management. The authors have identified existing problems and difficulties, and have analyzed the main issues that young people encounter when entering state civil service. The study results led to the development of recommendations aimed at improving the effectiveness of the adaptation process for young specialists in government bodies.

**Keywords:** state, society, management, competence, flexibility, modernization, quality, corporate culture, value

# YOSHLAR HUQUQIY ONGI BUZILISHLARINING BA'ZI FALSAFIY JIHATLARI

**Sagdullayeva Dilbar Shuxratovna,**

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi*

**Annotatsiya.** Maqolada yoshlar ijtimoiylashuvining omillaridan biri bo'lgan huquqiy madaniyat, uning demokratik, huquqiy, ijtimoiy davlat barpo etishdagi roli asoslangan. Huquqiy ong, huquqiy madaniyatning tarkibiy tuzilishi, mohiyati falsafiy tahlil etilib, ular elementlarining o'zaro uzviy aloqasi o'rganilgan. Maqolada faylasuf olimlarning huquqiy madaniyatga doir qarashlari qiyosiy tahlil etilgan. Jamiyat taraqqiyoti uchun huquqiy ong va huquqiy madaniyat uyg'unlashuvi zaruriyati asoslanilib, ulardagi buzilishlar, uni keltirib chiqaruvchi omillar, bartaraf etilishiga xizmat qiluvchi vositalar haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** demokratiya, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ijtimoiy ong shakllari, ma'naviyat, iqtisodiyot, madaniyat, huquqiy ong buzilishlari, infantilizm, nigilizm, jinoyatchilik.

## Kirish

Mamlakatimizda demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida olib borilayotgan islohotlar samaradorligi barkamol insonni tarbiyalash jarayonlariga bevosita bog'liqdir. Zero, fuqaroning ijtimoiy faolligi oshgani sari fuqarolik jamiyati tuzilmalari rivoji shuncha tezlashadi. Ijtimoiy faollik daxldorlik hissining ortishi bilangina cheklanmay, tabiiy va ijtimoiy sohalarga oid bilim va ko'nikmalar takomilini, ulardan foydalanib yashash malakasini qamrab oladi. Rivojlanayotgan har qanday davlat taraqqiy etishda o'z ilmiy salohiyatiga tayanadi. Fan va amaliyot intensiv aloqadorligini ta'minlash bizdan nafaqat bilimdon, ijodkor insonni, balki ma'naviy-ma'rifiy salohiyati yuqori mutaxassisni tarbiyalashni talab etadi.

Shuningdek, O'zbekistonda jamiyat barcha sohalarini modernizatsiya qilish va erkinlashtirish, siyosiy-huquqiy va iqtisodiy tizimni demokratik yangilash vazifasi yoshlarning dunyoqarashi, ongu tafakkuri, siyosiy-huquqiy saviyasi, madaniyatini va ijtimoiy faolligini yuksaltirishni, huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy savodxonligini yanada oshirish, huquqiy madaniyatini takomillashtirishni talab etmoqda. Zero, fuqarolar ongida «Jamiyatda qonunlarga hurmat

ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!» degan hayotiy g'oyani mustahkamlashning ahamiyati yuqoridir.

Bugungi globallashuv davri imkoniyatlari esa ushbu jarayonga to'siq bo'layotgan qator omillarga keng yo'l ochib bermoqda.

Dunyo miqyosida yoshlar vakillarining ekstremistik, terroristik faoliyatga aralashuvi ular orasida huquqbuzarlik, jinoyatchilik kabi illatlarning o'sib borayotganligining guvohimiz. O'zR Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga jaholat va murosasizlik tashkil etishiga, bunda yoshlar ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa ekanligiga urg'u berildi. «Sayyoramiz ertangi kuni, farovonligi farzandlarimizning qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi «virusi» tarqalishining oldini olishdir». Darhaqiqat, inson hayotiy pozitsiyasining qadriyatlarga asoslanganlik darajasi uning jamiyatdagi mavqeini belgilaydi. Buni fuqaroning siyosiy-huquqiy borliqqa munosabatidan kelib chiqib yuzaga kelgan huquqiy ong buzilishlari asosida tahlil qilish

mumkin. Huquqiy ong buzilishlarini to'laqonli tadqiq etish esa o'z navbatida, huquqiy ong, huquqiy madaniyat mohiyatini tahlil etishni talab qiladi.

### **Muammoning o'rganilganlik darajasi**

Ma'lumki, har bir jamiyatda amal qiluvchi ijtimoiy ong shakllarida millatning ruhiy, ma'naviy qiyofasi aks etadi. Ijtimoiy ongning shakllari jamiyat a'zolarining tafakkuri, ruhiyati, ma'naviy dunyosi asta-sekinlik bilan o'zgarib borishiga olib keladi. Huquqiy ong jamiyatda demokratik tamoyillarning qaror topishi, ularning ijtimoiy munosabatlarga singib borishida katta kuchga egadir. O'z navbatida, jamiyat huquqiy ongining takomillashuvi yuksak huquqiy ong subyektini bo'lgan, demokratik taraqqiyotga monand yangi tipdagi insonning shakllanishi bilan uyg'unlikda kechadi.

Huquqiy ong inson ma'naviyatining asosiy bo'g'inlaridan biridir. Shu sababli inson ma'naviyatining mohiyati va darajasini huquqiy ongsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jamiyat rivojlangan sari huquqiy ong, huquqiy madaniyat bilan bog'lanib, ma'naviy qadriyatlar tizimida tobora muhimroq o'rin egallab boraveradi.

Ushbu masalani tadqiq etgan olimlarning bir guruhi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida talqin etadilar. Ular fikricha, huquqiy ong shaxs ongida, jamiyat g'oyalari namoyon bo'lgan huquqdir. Huquqiy ong huquq va qonuniylikka munosabatdagi e'tiqodlar, tasavvurlar, baholar, his-tuyg'ular va ma'naviyatning boshqa tarkibiy qismlari tizimidir.

S. Otamurodov fikricha, huquqiy madaniyat — qonunni tushunish, bilish, hayotga tadbiiq etish, ijrosini ta'minlash va har bir shaxs, fuqaroning ijtimoiy hayotda faol ishtiroki va bunday faollikni boshqalardan ham talab qilish jarayonidir. Huquqiy madaniyatni, avvalo, insonning ichki dunyosi, ichki madaniyati, umuminsoniy an'analarga va huquqiy bilimlarga bo'lgan munosabatlari belgilaydi.

Ushbu nuqtai nazarda, eng avvalo, huquqiy madaniyat inson, uning ichki dunyosi, dunyoqarashidan kelib chiquvchi va uni belgilovchi faoliyatisiz, bunday faoliyat va tafakkurning taraqqiy-parvar yo'nalishsiz mavjud bo'la olmasligiga urg'u beriladi. Zero, haqiqiy huquqiy madaniyat tarixiy ijobiy huquqiy tajribani e'tiborga olmasdan mavjud bo'la olmaydi.

Yuqorida ko'rilgan nuqtai-nazarning birida huquqiy ongning darajasi jamiyatning iqtisodiy ahvoriga taqalsa, ikkinchisida huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni insonning ichki dunyosi belgilashiga urg'u beriladi. Bizningcha, huquqiy ong va huquqiy madaniyat sub'ekti bo'lgan inson (fuqaro) iqtisodiy munosabatlar ta'siriga berilmay qolmasligidan kelib chiqib, bu ikki ijtimoiy fenomenning mohiyatini faqat inson ma'naviyatiga olib borib taqash mumkin emas.

Uchinchi nuqtai-nazarga ko'ra, huquqiy taraqqiyotni madaniy borliqning birgina elementi.

– xo'jalik madaniyatidan qidirish iqtisodiy materializmga, yoki uni faqat ma'naviyatga bog'lab qo'yish subyektivizmga olib kelishi ta'kidlanib, jamiyatning rivojlanish (xususan, huquqiy kamolot) mezonini sifatida madaniy borliqning sifat darajasi ko'rsatiladi.

S.Abduxolliqov fikricha, madaniy borliq yuzaga kelishi va amal qilishining asosiy funksiyasi anglangan ehtiyojlarni qondirib borishidir. Ehtiyoj va o'zlashtirish o'rtasidagi muvofiqlikning buzilishi, ya'ni o'zlashtirishning ehtiyojlarni qondira olmay qolishi yoki yangi-yangi ehtiyojlarning yuzaga kelishi madaniy borliqning o'zgarib, rivojlanib borishiga olib keladi. Madaniy borliq ko'lamining kengayib va rivojlanib borishi jamiyatning taraqqiyotiga – ijtimoiy, jumladan huquqiy rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bunda madaniy borliqning u yoki bu qismlarining bir-biriga nisbatan ilgari ketishi yoki orqada qolishi, yoxud parallel rivojlanishi tabiiy.

Uchinchi nuqtai-nazar huquqiy madaniyatni madaniy borliqning tarkibiy qismlaridan biri sifatida baholaydi. "Huquqiy madaniyat huquqiy hayotning ishlov berib yaratilgan qismi, yadrosi, mavjudligi, rivojlanish va amal qilishining asosi. Huquqiy madaniyatning substansional elementlari: 1) inson va uning mikro va makro birliklarining huquqiy mavjudot – sub'ekt sifatida namoyon bo'lishlari; 2) anglangan huquqiy ehtiyoj va manfaat; 3) huquqiy ong va bilish; 4) huquqiy faoliyatning birinchi bosqichi – huquq ijodkorligi; 5) huquqiy faoliyat natijalari – rasmiy manbai va vositalari; 6) huquqni realizatsiya qilish (huquqiy faoliyatning ikkinchi bosqichi). Bu elementlarning yuzaga kelishiga ongli, maqsadli harakat xosdir, shuning uchun ham ular huquqiy madaniyatning tub mohiyatini tashkil etuvchi tomonlardir".

Ushbu yondashuvda ilgari surilayotgan fikrga ko'ra, huquqiy ong, bilish, baholash huquqiy borliq, jumladan, huquqiy madaniyatning gnoseologik asoslari va tizimni tashkil etuvchi substansional elementlaridir. Ushbu elementlar huquqiy borliq yuzaga kelishining motivi va yashash usuli o'rtasidagi bog'lovchi xalqa rolini o'taydi. Bunga ko'ra huquqiy ong madaniy hodisa bo'lib, huquqiy hayotga ishlov berish jarayonining gnoseologik asosidir. Huquqiy ongning manbai huquqiy ehtiyoj bo'lib, uning o'zi navbatdagi fikrlash jarayoni uchun manba vazifasini bajaradi.

To'rtinchi nuqtai-nazarga ko'ra, huquqiy madaniyat ikki tarkibiy qism – huquqiy ong va huquqiy ijtimoiylashuvdan iboratdir. Huquqiy madaniyatga nisbatan ushbu yondashuvni quyidagi nuqtai-nazar bilan asoslash mumkin. Ma'lumki, huquqiy ong asosini tashkil etuvchi huquqiy

bilimlar insonga ijobat va ta'qiqlarni farqlash, o'z qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qila olish imkoniyatini beradi. Biroq bu sohada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qonunga xilof faoliyat bilan shug'ullanuvchilar, jinoyatchilarning huquqiy savodxonlik darajasi, qonun doirasida faoliyat yurituvchi fuqarolar huquqiy bilimlaridan yuqoridir. Shundan kelib chiqib, shaxsning o'z huquqiy ehtiyojlariga erishishda huquqiy madaniyat me'yorlari va an'alarini o'zlashtirib, faoliyat yuritishi huquqiy madaniyatning asosini tashkil etadi. Bu yondashuvning mohiyati oldingi nuqtai-nazarlardan keskin farq qilmaydi.

Rossiyalik olimlar asarlarida huquqiy ong "ijtimoiy ong shakllaridan biri" yoki "huquqiy voqelikni aks ettiruvchi ma'naviy ong sohasi" sifatida talqin etiladi. Huquqiy madaniyat esa xilma-xil omillar asosida o'rganiladi. Mavjud manbalarni o'rganish asosida aytishimiz mumkinki, huquqiy madaniyat

kategoriyasining mohiyatiga doir haligacha aniq, yakdil yondashuv mavjud emas. Mutaxassislarining ko'rsatishicha, huquqiy madaniyatga 250 dan ortiq ta'riflar berilgan. Bu esa ushbu ijtimoiy hodisaning qanchalik murakkab, serqirra ekanligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, fuqaro tomonidan mavjud huquqiy talablarning anglab bajarilishi uning huquqiy madaniyatlilik darajasini namoyon qiladi. Shu nuqtai-nazardan, mavjud yondashuvlarning biriga ko'ra, "anglab yetilgan huquq – huquqiy madaniyatning asosi bo'lib xizmat qiladi". A.Vengerov fikricha, huquqiy madaniyat "huquqiy ongning nisbatan yuksak va keng ko'lamlil shakli" dir. Ushbu ikkita ta'rif o'zaro yaqin bo'lib, ularda huquqiy ongning yuqori darajasi huquqiy madaniyatning asosi sifatida e'tirof etiladi. Huquqiy madaniyat faqat ideal sohaga taalluqli deb ko'rsatilib, bunda ijtimoiy huquqiy faoliyat va uning natijalari inobatga olinmaydi.



T. Sinyukova fikricha, huquqiy madaniyat inson amaliy faoliyatining "muayyan jamiyatda odamlarni ijtimoiy–huquqiy yo'naltirish funksiyasini bajaruvchi me'yorlar, qadriyatlar, yuridik institutlar, jarayonlar va shakllarni o'z ichiga oluvchi" sohasidir.

R. Rusinov huquqiy madaniyatni tahlil etganda, unga ta'sir etuvchi omillar va uning elementlarini sanab o'tgan. Huquqiy madaniyat "jamiyat huquqiy hayotining ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy tuzum bilan belgilanuvchi, huquqiy faoliyat, yuridik hujjatlar va, umuman, huquqiy ongning erishilgan rivojlanish darajasi, subyektning rivojlanish darajasida o'z aksini topgan sifat holatidir". Ammo bu yondashuvni ham mukammal deb bo'lmaydi.

V. Salnikov esa, huquqiy madaniyatni "shaxsning

ham, jamiyatning ham muayyan asoslarga ko'ra tizimlashtirish lozim bo'lgan alohida huquqiy holati deb idrok etish mumkin" - deydi. Bu yondashuvda shaxsning ham, jamiyatning ham huquqiy madaniyatiga umuminsoniy qadriyatlarning kategoriyalaridan biri, taraqqiyparvar insoniyat qo'lga kiritgan umumdemokratik yutuqlarning muhim natijasi sifatida baho beriladi.

#### **Tahlil usullari**

Maqolada falsafiy tafakkurning qiyoslash, umumlashtirish, tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi ilmiy usullariga tayanildi

#### **Xulosa va yechim**

Demak, o'rganilgan asarlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ularda huquqiy madaniyat huquqiy



voqelikka daxldor ham ma'naviy, ham moddiy qadriyatlarini qamrab oluvchi umumiy madaniyatning o'ziga xos ko'rinishi sifatida talqin etilgan. Huquqiy madaniyat huquqning amal qilishi, uning inson tafakkuri va xatti-harakatida aks etishini ifodalashiga urg'u berilgan. Huquqiy madaniyat o'z vazifalarini to'liq bajarishi, fuqaroda qonun doirasidagi xulq-atvorning shakllantirilishi uchun faqat huquqiy ongning o'zi emas, balki huquqiy va axloqiy ongning uyg'unligiga erishish lozim. Zero, yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir.

Bizningcha, huquqiy madaniyat jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarining jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy davlatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Bizningcha, keng va faol huquqiy ong, huquqiy madaniyatning bir qismi bo'lib, davlat va huquqiy voqealar haqidagi g'oyalar, qarashlar, his-tuyg'ular, fikrlar, kayfiyatlar tizimidir. Huquqiy ongda huquqiy ruhiyat va huquqiy mafkura muhim o'rin tutadi.

Huquqiy madaniyatning o'zagini shunchaki muayyan bilimlar yig'indisigina emas, balki irodaviy va mafkuraviy dastur, fuqarolik faoliyati ko'nikmalari, xulq-atvorning barqaror ko'rinishlari ham tashkil etadi. Z.Islomov fikriga ko'ra, huquqiy madaniyat shaxs kamolotida o'ziga xos sifat bosqichini namoyon etib, mafkuraviy (tafakkur madaniyati, ijtimoiy tajribani tahlil qilish va umumlashtirish, yangi ijtimoiy hodisalarni ijodiy mushohada etish), hissiy-ruhiy (bilimning chinligiga ishonch), amaliy xulq-atvor (siyosiy va huquqiy yechimlarni realizatsiya qilishga qodirlik va tayyorlik) kabi darajalarni qamrab oladi. Huquqiy madaniyatning o'zagini, ijtimoiylashuv va fuqaroviy madaniyatning shakllanishi tashkil etadi.

Fuqaroviy madaniyat fuqarolik jamiyatining muhim unsurlaridan biridir. Fuqarolik jamiyatining negizini tashkil etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va madaniy plyuralizm shaxs va fuqaro huquqlari hamda erkinliklari asosida o'rnatiladi. Demak, siyosiy va huquqiy madaniyat fuqaroviy madaniyatning negizini tashkil etib, u esa, o'z navbatida, yuqori darajadagi ma'naviy barkamollikning ifodasi bo'lib hisoblanadi.

Huquqiy ong huquqiy ruhiyat va huquqiy mafkuradan iborat bo'lgan murakkab tuzilmadir. Huquqiy xarakterdagi ruhiy his-tuyg'ularda insonning huquq tajribasi bilan bog'langan sub'ektiv kechinmalari o'z ifodasini topadi. Demak, huquqiy ong deformatsiyalari yoshlikdan berilgan tarbiyaning darajasi, fuqaroning huquqqa, amaldagi

qonunchilikka munosabatidan kelib chiqadi.

Huquqiy infantilizm (lot.infantilis - bolalarcha) – huquqiy ong buzilishining nisbatan yumshoqroq shakli bo'lib, huquqiy bilim va dastur yoki e'tiqod tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan tavsiflanadi. Bu asosan zararli odatlar ta'sirida voyaga yetgan, yetarli tarbiya va ta'lim olmagan kishilarga xosdir.

Huquqiy nigilizm (lot.nihi-hech nima – hechqanday ideallarga bog'liq bo'lmagan mutlaq inkor qilish nuqtai-nazaridir. Huquqiy nigilizm mohiyatan huquqqa, qonunlarga, normativ tartibga salbiy inkor etuvchi, hurmatsizlik kayfiyatida bo'lishdir. Jamiyatimiz a'zolarining ayrim o'rta yoshdagi vakillari hamda yoshlarning muayyan qismida huquqqa, amaldagi huquq tartibotiga ishonchsizlik, hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lish hollari yaqqol namoyon bo'layotganligini kuzatish mumkin. Ushbu holat sub'ektiv omillar bilan birga o'tish davri qiyinchiliklari, huquqiy tizimdagi ayrim kamchiliklar negizida namoyon bo'lmoqda.

Huquqiy nigilizm qonun talablarini ongli ravishda inkor etish bo'lsa-da, hech qanday jinoiy niyatsiz amalga oshiriladi. Yovuz niyatning mavjudligi huquqiy ong deformatsiyasining eng og'ir shaklini keltirib chiqaradi. Aynigan huquqiy ong qonunni shunchaki inkor etib qolmasdan, balki buni g'arazlilik, shafqatsizlik, nafs buzuvchilikdan kelib chiqib amalga oshiradi. Aynigan huquqiy ong namoyon bo'lishining asosiy shakli jinoyatchilik hisoblanadi.

Davlatimiz boshlig'i jinoyatchilikning oldini olish, davlat idoralari va jamiyatning bu boradagi mas'uliyatini oshirish masalalariga bag'ishlangan video selektor yig'ilishida shunday degan edi: «Agar hamma birdek jon kuydirib, oilalar muammolaridan to'liq xabardor bo'lib, ularni hal etishga ko'maklashganda, jinoyatchilikning barvaqt oldini olganda edi, bugun natijalar umuman boshqacha bo'lardi. Har bir jinoyatning ildizigacha yetib borish, jamiyatda jinoyatchilikka qarshi kurashish immunitetini shakllantirish kerak. Aks holda, jinoyatning oqibatlari bilan ovora bo'lib yuraveramiz».

Huquqiy nigilizm huquqqa nisbatan iste'molchilik munosabati sifatida jinoyatchilar dunyosining madaniyatini belgilab beradi. Huquqiy borliq jarayonlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlarning bir qismida huquqiy qadriyatlarga nisbatan befarqlik qaror topgan. Yoshlar huquqni bilmasliklarini namoyish qilayotgan bir vaqtda huquqbuzarlar, odatda, o'zlarining huquqiy jihatdan, ayniqsa, jinoyat huquqi sohasida bilimdonliklarini ko'rsatmoqdalar. Biroq ular ham bular ham nuqsonli, past huquqiy ongga egadirlar.

Individual hamda ijtimoiy omillarning o'zaro ta'sirida yuzaga keluvchi huquqiy ong deformatsiya-

larining oldini olishda jazolash choralarning kuchaytirilishi ham, huquqiy bilimlar-ning ko'rkona singdirilishi ham befoya. Bu jarayonda hamma narsa yana tarbiyaga borib taqaladi. Zero, axloqsizlik, badxulqilik o'z vaqtida ta'sir ko'rsatilmasa, nigilizmga, uning yuqori ko'rinishlariga o'tadi. Har qanday bilim asosida qadriyatlariga asoslangan tamoyillar, axloq yotsagina, u muayyan qimmatga ega bo'ladi. Fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunga hurmat hissining qaror toptirish – demokratik xuquqiy davlat qurishning garovi", degan g'oyani mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston bugungi kunda insonparvar demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etmoqda. Jinoiy jazolarni liberallashtirish borasida olamshumul ishlar amalga oshirilmoqda. Inson huquq va manfaatlarini ustuvorligi barcha islohotlarning mohiyatini tashkil etadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiyaning, huquqiy targ'ibotning muayyan usul va vositalarini keng joriy etish, huquqiy madaniyatni takomillashtirish asosida huquqiy ong deformatsiyalari o'sib borishini kamaytirish davr talabidir.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lgan huquqiy ong jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy turmush darajasiga aks ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy g'oyalar, tasavvurlar, nazariyalar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kirib borib, fuqarolar ongida o'rin olib, ular xulq-atvoriga, amaliy faoliyatiga mafkuraviy ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy ong odamlarni ma'lum tarzda o'zlarini idora qilishga, qabul qilingan qonun va qoidalar doirasida faoliyat ko'rsatishga undaydi. Kishilarning huquqiy ongi va bilimining darajasini ularning ijtimoiy-huquqiy faolligiga qarab aniqlash mumkin.

Demak, huquqni inson hayot faoliyatini tashkillashtirishning zaruriy bo'g'iniga aylantirish, inson huquqlari ruhida ta'lim-tarbiya berishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratish, jamiyatda huquqiy bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan maqsadli keng ko'lamli chora-tadbirlar dasturilarida ko'zlangan maqsadlarni amalga oshirish dolzarbdir. "Adolat –qonun ustuvorligida" shiorini amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlarni zamon bilan hamnafas ravishda olib borish, o'z navbatida fuqarolar huquqiy madaniyati takomillashib borishiga ko'maklashadi.

### Taklif va tavsiyalar

Demokratlashuv jarayonlari aholi, ayniqsa yoshlar huquqiy madaniyatini takomillashtirishni, huquqiy ta'lim-tarbiyani kuchaytirishni taqozo etmoqda. Ushbu yo'nalishda quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- huquqiy ong buzilishlarini oldini olish, yoshlar huquqiy madaniyatini takomillashtirish borasida davlat tuzilmalari va jamoat birlashmalarining keng hamkorligini ta'minlash;

- huquqiy tarbiyani ta'lim-tarbiya muassasalari tomonidangina emas, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat tashkilotlari va korxonalarining, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining yuridik xizmatlari xodimlari ishtirokida amalga oshirish;

- yoshlar huquqiy madaniyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi adabiyotlarni tayyorlash va nashr ettirishni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash;

- ta'lim tarbiya muassasalariga daxldor bo'lmagan shaxslarning (ishchilar, xizmatchilar, uy bekalari, pensionerlar, harbiy xizmatchilar va boshqalarning) huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan huquqiy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish. Ushbu faoliyatga davlat yuridik o'quv yurtlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar ilmiy-tadqiqot institutlari huquqshunos olimlarini jalb etish;

- huquqiy targ'ibot ishlarida, siyosiy partiyalar, NNT, jamoat birlashmalari, fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarning ta'sirini oshirish;

- mansabdor shaxslarning huquqiy bilimi va huquqiy madaniyati darajasiga nisbatan alohida talablar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ular qonunlarni qat'iy ijro etishga, huquqning so'zsiz amal qilishini taminlash, huquqiy siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga mas'uldir;

- jamiyat hayotini demokratlashirish sharoitida aholi huquqiy ongi darajasini, huquqiy madaniyati takomillashuvi dinamikasini kuzatish sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish orqali jamiyatga aks ta'sir ko'rsatishning ahamiyati ortib bormoqda. OAV huquqiy mavzularga e'tiborini kuchaytirish, aholi o'rtasida ko'proq ko'tarilayotgan yuridik masalalarni davriy nashrlar sahifalarida televidenie va radio eshittirishda tushuntirib borish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi. PF-5618-son/ QHMMB: 06/19/5618/2452-son 10.01.2019 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. 2017 yil 19 sentyabr. <https://uza.uz/posts/56413>.
3. Otamurodov S., Ramatov J., Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. - Toshkent, 2000.-199-bet.
4. Abduxolliqov S. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligi huquqining metodologik muammolari. Fals. fan. dok. ... diss. Avtoreferati. - Toshkent, 2002. - 25-bet.

5. Abduxoliqov S. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligi huquqining metodologik muammolari. Fals.fan. dok. ... diss. Avtoreferati. - Toshkent, 2002. - 26-bet.
6. Adilova D. Nekotoriye filosofskiye voprosy pravovoy kultury // Ijtimoiy falsafaning dolzarb muammolari (2-kitob). - Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2009. -44-45-betlar.
7. Lazarev V.V., Lipen S.V. Pravovoe soznanie // Teoriya gosudarstva i prava. - M.:Spark, 2000.); Granat L.N. Pravosoznanie i pravovaya kultura // Yurist.-Moskva, 1998. - № 11/12.
8. Vengerov A.B. Pravosoznanie i pravovaya kultura // Teoriya gosudarstva i prava. - M.: Yurisprudensiya, 1999. - s.492.
9. Sinyukova T.V. Pravovaya kultura // Teoriya gosudarstva i prava. - Saratov, 1995. - s.473.
10. Rusinov R.K. Pravovaya kultura // Teoriya gosudarstva i prava. - M., 1997. - s.150-151.
11. Salnikov V.P. Pravovaya kultura // Aktualniye problemy teorii prava. - Ufa, 1995. - s.150.
12. Islamov Z. Obshestvo. Gosudarstvo. Pravo.-Tashkent: Adolat, 2001. - s.421-422.
13. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.-Toshkent, 4-jild.-188-bet.
14. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.-Toshkent, 6-jild.-340-bet.
15. <https://www.xabar.uz/siyosat/shavkat-mirziyoyev-bitta-bolsa-ham>
16. Jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasi. PF-5618. QHMMB: 06/19/5618/2452-son 10.01.2019 y.

**Аннотация.** В статье обоснована правовая культура как один из факторов социализации молодежи, ее роль в построении демократического, правового, социального государства. Философски проанализированы структура, сущность правосознания, правовой культуры, изучена взаимосвязь их элементов. В статье дан сравнительный анализ взглядов ученых-философов на правовую культуру. Обоснована необходимость гармонизации правосознания и правовой культуры для развития общества, проведено рассуждение о нарушениях в них, о факторах, их вызывающих, о средствах, служащих их преодолению.

**Ключевые слова:** демократия, правовое государство, гражданское общество, правосознание, правовая культура, формы общественного сознания, духовность, экономика, культура, нарушения правосознания, инфантилизм, нигилизм, преступность.

**Abstract.** The article substantiates legal culture as one of the factors of socialization of youth, and its role in building a democratic, legal, social state. The structure and essence of legal consciousness and culture are philosophically analyzed, and the interrelation of their elements is studied. The article provides a comparative analysis of the views of scientists and philosophers on legal culture. The necessity of harmonizing legal awareness and legal culture for the development of society is substantiated, and a discussion is held about violations, the factors causing them, and the means to overcome them.

**Keywords:** democracy, legal state, civil society, legal consciousness, legal culture, forms of social consciousness, spirituality, economics, culture, violations of legal consciousness, infantilism, nihilism, crime.

# YURTIMIZDA YOSHLARGA YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR VA ULARNI ZAMONAVIY KASB-HUNARGA O‘RGATISHNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI

Mirsoatova Robiya Jahongir qizi,  
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari  
ilmiy-tadqiqot instituti tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo‘yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yoshlarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash, orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish masalasiga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda.

**Kalit so‘zi:** Yoshlar, yosh avlod, yoshlar siyosati, yoshlar daftari, kasb-hunar, huquqiy baza.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma‘lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta‘lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e‘tibor darajasiga bog‘liq. Shu ma‘noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xaqqlaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko‘p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. O‘zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib

ketgani, xaqqlaro terrorism va ekstremizm shiddat bilan o‘shib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi.

Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunida ramziy mazmuni-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat‘iy pozitsiyasiga ega, yurtida amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

Alohida ta‘kidlash joiz, “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Xaraktlar strategiyasi”da ham bu masala alohida o‘z aksini topdi. Jumladan,

yoshlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan quyidagi ustuvor vazifalar belgilandi:

birinchidan, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

ikkinchidan, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

uchinchidan, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan 2018-yil 27-iyunda imzolangan "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risidagi Farmon bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo'ldi. Farmon bilan "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi tashkil etildi va ushbu jamg'arma yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berishi belgilab qo'yildi. Ushbu hujjatga e'tibor qaratsa, yoshlar tadbirkorligi va tashabbuskorligini kompleks rivojlantirish vazifalari aniq va tizimli belgilanganligini ko'rish mumkin.

O'z navbatida, O'zbekistondagi barcha o'zgarishlarning negizi hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Ayni vaqtda ta'lim, shu jumladan, ijtimoiy soha uchun xarajatlar miqdori davlat byudjeti xarajatlar umumiy qiymatining yarmidan ko'prog'ini tashkil etmoqda. Tabiiyki, har qanday davlat ham bunday katta xarajatlarni ko'tara olmaydi, ammo qanchalik og'ir bo'lmasin, buning uchun zarur mablag' va resurslar izlab topilmoqda.

O'zbekiston rahbari mazkur xarajatlarni xarajat emas, balki kelajak uchun qo'yilgan eng samarali sarmoya deb hisoblab, ta'lim darajasi va sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omil ekanini ta'kidlamog'da. Haqiqatan ham, islohotlarning taqdiri, natijasi, birinchi navbatda, kadrlar saviyasiga, ularning davr va taraqqiyot talablariga nechog'li javob bera olishiga bog'liq.

Shu maqsadda, mamlakatda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tashkil etildi va maktab ta'lim tizimi tubdan isloh qililib, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim qayta joriy etildi. Viloyatlarda yangi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy va ijodiy markazlar tashkil etilmoqda. Oliy o'quv yurtlariga qabul kvotalari sezilarli darajada oshirildi. Oliy ta'limning sirtqi va kechki shakllari qayta tiklandi. Keyingi ikki yil ichida yurtimizda 15 dan ortiq rivojlangan davlatlarning

nufuzli universitetlarining filiallari ochildi.

Muxtasar aytganda, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko'zlagan holda, bosqichma-bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izchil davom ettirilmoqda.

Bu borada Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi sa'y-harakatlarni tizimli asosda yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusning ilgari surilishi O'zbekiston tarixida yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi.

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniktirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus – aholi va ba yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Davlat rahbarining bu ezgu g'oyasi O'zbekiston xalqi, ayniqsa, yoshlari tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olinib, qisqa vaqt ichida mamlakat bo'ylab keng quloq yozdi.

Ushbu besh tashabbusga ko'ra, hududlardagi madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holati keskin yaxshilandi, yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha yana

1,5 mingga to'garaklar tashkil etildi. Hatto eng chekka qishloqlardagi madaniyat markazlarida ham badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" faoliyati yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, mamlakat miqyosidagi 12 mingdan ziyod sport inshootiga yoshlarni maksimal darajada qamrab olish choralari ko'rilib, barcha umumta'lim maktablari sport anjomlari bilan to'liq jihozlandi. Shu bilan birga, olis va chekka hududlarda yengil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar qurildi. Bolalar va o'smirlar sport maktablari soni yanada ko'paytirildi.

Yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o'rgatish masalalari bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar asosida barcha hududlarda Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etildi. Bu maskanlarda elektron tijorat va dasturlash bepul

o'rgatilib, axborot texnologiyalari sohasida biznes bo'yicha innovatsion ko'nikmalar shakllantirilib, «startup» loyihalarga yordam ko'rsatilmoqda. Yangi tashkil etiladigan kompyuter o'yinlari markazlari yosh avlodning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan test, viktorina, rivojlanish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar bilan ta'minlandi.

Yoshlarda kitobxonlik ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida, ushbu tashabbus doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarga 1 million nusxadan kam bo'magan miqdorda kitoblar yetkazib berildi. Shuning barobarida, har bir shahar va tuman markazida bittadan namunali kitob do'koni tashkil etildi. Ko'chma kitob pavilyonlari joylashtirilib, «Bibliobus»lar orqali qishloq va ovullar aholisiga kutubxona xizmatlari ko'rsatish yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo'yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmogda. Xususan, yoshlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmogda.

Natijada, har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson bo'lib voyaga yetayotgan o'g'il-qizlarnimiz o'zlari qiziqqan yo'nalish va sohalarda yangi-yangi maralarni zabt etib yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelmogda.

Bundan tashqari yurtimizda yoshlar bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalari bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.



Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati manzilli va keng qamrovli davom ettirilayotganligi, mahallada yoshlar yetakchilari faoliyati yo'lga qo'yilib, ularning muammolarini joyida hal etish imkoniyati yaratildi. Natijada yoshlar murojaatlarini ko'rib chiqish muddati 30 kundan 5 kunga qisqardi. Yosh avlodning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish va bandligini ta'minlash maqsadida 14-30 yoshdagi 9 million nafar yoshlarning balansi shakllantirildi.

Ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish,

iqtidorini yuzaga chiqarish maqsadida 5 bosqichli "Besh tashabbus olimpiadasi" o'tkazib kelinmogda. Ayni paytda yetakchilarning tavsiyasi asosida yigit-qizlarga 25 ta yordam turlari ko'rsatilmogda. Bu esa, yoshlarga qanot bo'lib xizmat qilmogda. Ammo bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan voqealar, iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlar dunyo mamlakatlari taqdiri har tomonlama yetuk va barkamol avlod bo'lib voyaga yetayotgan yoshlarga bog'liq ekanligini ko'rsatmogda. Shu bois, mamlakatimizda ham bu borada boshlangan islohotlarni izchil davom ettirish

bugungi siyosatimizning bosh maqsadi sanaladi.

Yoshlarga oid siyosat boradagi ishlarni davom ettirib, sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish zarurligi ta'kidlandi. Davlatimiz rahbari bitiruvchilarni kasb-hunarga o'rgatish va ish bilan ta'minlashga qaratilgan "Hayot maktabi" dasturini amalga oshirish tashabbusini bildirdi.

Endilikda, yoshlarni e'tibor va g'amxo'rlik bilan to'la qamrab olish maqsadida ular "mahalladan vazirlikkacha" tizimi orqali davlat idoralarga birlashtiriladi. Shuningdek, yoshlarga ajratilayotgan mablag'larning shakllanishi va moliyalashtirish jarayonlari ham raqamlashtirilib, maqsadli yo'naltirilishi shaffof mexanizmlar orqali nazorat qilinadi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, 2023 yil - "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" davlat dasturi loyihasida ham yoshlarni professional ta'lim muassasalarida kasbga o'qitish ko'lamini kengaytirish va ta'lim jozibadorligini oshirish, "El-yurt umidi" jamg'armasi ta'lim dasturlari asosida iqtidorli yoshlarning xorijiy davlatlarning eng nufuzli universitetlarida ta'lim olishi uchun ochiq stipendiya tanlovlarini o'tkazish kabi bir qator ishlar amalga oshirildi.

Yoshlarimizning san'at, adabiyot, sport sohalariga bo'lgan qiziqishlari ham inobatga olinib, hududlarda "Madaniyat karvoni" tadbirlari, festivallar, intellektual va sport musobaqalari o'tkazildi. Yoshlar saylgohlari, kreativ parklar tashkil etildi. Shuningdek, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan 75 ming nafar ishsiz xotin-qizlar davlat hisobidan mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlarga o'qitish ko'zda tutilgan.

Umuman olganda, "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da ham barcha soha va tarmoqlarda bo'lgani kabi yoshlarimiz ham yaratib berilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, yurtimizning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi uchun munosib hissa qo'shishi shubhasiz.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 4-oktabr kuni professional ta'lim sifatini oshirish hamda aholini kasb-hunarga o'qitish bo'yicha yangi tashabbuslar taqdimoti bilan tanishdi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda professional ta'lim alohida o'rin tutadi. Xususan, taraqqiy etgan davlatlarda o'quvchilarning 75 foizigacha kasbiy ta'lim bilan qamrab olingan.

Bugungi kunda 689 ta professional ta'lim muassasasida 714 ta kasb va mutaxassislik hamda 20 ta "Ishga marhamat" monomarkazida aholiga 54 ta kasb va 6 ta xorijiy til o'rgatilmoqda.

O'quvchilarga bir vaqtda ham o'qish, ham ishlab daromad topish imkonini beradigan "dual ta'lim" shakli joriy etildi. Bu tizim samarasida 2 ming korxonalar bilan birgalikda 6 ming yigit-qiz o'qitilmoqda. Shuningdek, yoshlarga 9-sinfdan keyin kasb-hunar maktabi, 11-sinfdan esa kollej va texnikumda turli mutaxassisliklar o'rgatilmoqda.

Kasbga o'qitish sifatini oshirish maqsadida tegishli vazirliklar tomonidan yangi takliflar ishlab chiqilgan. Mazkur takliflarda xorijiy ta'lim dasturlarini joriy etish, bitiruvchilar malakasining ichki va tashqi bozorda tan olinishini ta'minlash, o'quvchilarni kollej va texnikumlarga kengroq jalb etish, monomarkazlarda kasbga o'qitish sifatini yaxshilash chora-tadbirlari nazarda tutilgan.

Davlatimiz rahbari ushbu takliflarni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha topshiriqlar berdi. Aholi bandligi eng muhim masala ekani, yoshlarga kasb-hunarlarni tumanlar ixtisoslashtirishidan hamda korxonalar ehtiyojidan kelib chiqib, aniq yo'nalishlar bo'yicha o'rgatish kerakligi ta'kidlandi.

Kasblar va professional ta'lim klassifikatorlarini bosqichma-bosqich yangilab, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, professional ta'lim muassasalarini maktab va oliy o'quv yurtlari bilan uzviy bog'lash muhimdir. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi barcha kasb-hunar ta'limi muassasalarini yaxlit tizim sifatida muvofiqlashtirishi belgilandi.

Kelgusi o'quv yillarda har bir viloyatda dunyo tan olgan dastur asosida kasb-hunarga o'qitish yo'lga qo'yiladi. Ularning bitiruvchilari xalqaro malaka va xorijiy til sertifikatiga ega bo'ladi. Shuningdek, ilg'or kasbiy ta'lim va kasbga o'qitish sifatini ta'minlash mezonlari tatbiq etiladi. Monomarkazlarda kasblar ish beruvchilarning buyurtmasi asosida o'qitiladi, bu bitiruvchilarning ishga joylashishida muhim omil bo'ladi.

Yurtimizda yoshlarni xar tomonlama qo'llab-quvvatlash haqida so'z borganida ko'plab amalga oshirilayotgan ishlar qatorida "Yoshlar daftari" alohida e'tiborga ega.

«Yoshlar daftari» — ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasi bo'lib, "Yoshlar daftari"ga tuman (shaharlar)dagi har bir sektor kesimida mahallabay «Yoshlar daftari»ga o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan quyidagi toifadagi yoshlar kiritiladi:

— Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar — muomalaga va mehnatga layoqatsiz, nogironligi yoki salomatligida nuqsoni bo'lgan (nafaza olmaydigan), boquvchisini yo'qotgan, yetim, «Mehribonlik» uylari va bolalar shaharchalarida tarbiyalangan, muqaddam sudlangan, probasiya hisobida, profilaktik hisobda yoki ma'muriy nazorat ostida turuvchi ijtimoiy yordamga muhtoj yoshlar, shuningdek, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarning hamda «Temir daftar»ga kiritilgan oilalarning professional va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchi farzandlari;

— Iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj yoshlar  
 — tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyatini boshlash, shuningdek o'zini o'zi band qilish istagida bo'lgan ishsiz yoshlar;

— Psixologik qo'llab-quvvatlashga muhtoj yoshlar

— jamiyatda o'z o'rnini topishga qiynalayotgan, turli xil muammolar sababli ijtimoiy reabilitasiyaga muhtoj yoshlar (suisid sodir etishga harakat qilgan va boshqalar);

— Ishsiz yoshlar — haq to'lanadigan ishga yoki ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan mashg'ulotga ega bo'lmagan, ish qidirayotgan va ish taklif etilsa, unga kirishishga tayyor bo'lgan yoxud kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan o'tishga yoki malakasini oshirishga tayyor bo'lgan, ishga joylashishda ko'mak olish uchun mahalliy mehnat organlariga murojaat qilgan va ushbu organlar tomonidan ish qidirayotgan shaxslar sifatida ro'yxatga olingan mehnatga layoqatli yoshlar (bundan ta'lim muassasalarida ta'lim olayotganlar mustasno).

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga quyidagi yordamlar taqdim etiladi :

— “Yoshlar daftari”ga kiritilgan moddiy ahvoli qiyin yoshlarga bir martalik moddiy yordam;

— “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni tadbirkorlik, kasb-hunar, haydovchilik va qayta tayyorlov kurslarida o'qitish xarajatlarini qoplash;

— “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga urug'lik va ko'chatlar xarid qilish uchun subsidiya ajratish ;

— “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilish uchun noturar joyning ijara xarajatlarini qoplash;

— “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini o'zi band qilishga zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilishga subsidiya ajratish

— “Temir daftar”ga kiritilgan oilalar farzandlarining, shuningdek, “Yoshlar daftariga” kiritilgan yoshlarning mamlakatimizdagi professional va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish bo'yicha to'lov-kontrakt summasining bir qismini to'lab byerish;

— “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga, jumladan, yosh oilalarga turar joy ijarasi kompensatsiyasini to'lash;

— “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash;

— “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish;

— “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning xorijda xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migrasiyasini tashkil etish;

— “Mehribonlik” uylari tarbiyalanuvchilari hamda

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning safarbarlik chaqiruvi ryezyervi xizmati badalini qoplash;

— “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga tibbiy, huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish;

— Yoshlarning iste'dodlarini qo'llab-quvvatlash, besh muhim tashabbusni ro'yobga chiqarish va uning doirasidagi tadbirlarni “Yoshlar daftari” jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirish;

— “Mehribonlik” uylari, Bolalar shaharchalari va oilaviy bolalar uylarida tarbiyalangan yoshlar hamda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida o'qish xarajatlarini kompensatsiya qilish;

— Xususiy tashkilotlarga ishga qabul qilingan, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni kasbga qayta tayyorlash kurslarida o'qitish xarajatlarini kompensatsiya qilish;

— Xususiy tashkilotlarga ishga qabul qilingan “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni kasbga qayta tayyorlashga sarflanadigan xarajatlarini kompensatsiya qilish;

— “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning xorijiy tillar va umumta'lim fanlari bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlarida o'qish xarajatlarining bir qismini hamda ular bo'yicha milliy syertifikatlar olish uchun o'tkaziladigan imtihonlarni topshirish xarajatlarini qoplab berish;

— Professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan “Yoshlar daftari”ga kiritilgan o'quvchi yoshlarga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida ishlab chiqarish amaliyoti davri uchun subsidiya ajratish kabi ko'plab amaliy yordam ko'rsatiladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, ilg'or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O'zbekiston bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qancha kuchaytirilsa, unung samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Shu bois O'zbekiston jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etiluvchi yoshlar qatlamiga «muammo» deb emas, balki yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaramoqda. Natijada bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda.



---

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.:O'zbekiston, 2017 y. - 488 b
  2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023 y.
  3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022 yil 28 yanvar PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son
  4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi. Toshkent, O'zbekiston, 2017.-48 b.
  5. [lex.uz](http://lex.uz)
  6. [www.parlament.gov.uz](http://www.parlament.gov.uz)
  7. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
-